

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

*Qo'lyozma huquqida  
UDK:*

**IBRAGIMOV ALISHER QURBON O'G'LI**

**FRANSIYA IKKINCHI RESPUBLIKASI TARIXINING RUS  
MANBALARIDA AKS ETISHI  
(A.I.Gersen, P.V.Annenkov, A.N.Karamzinlar misolida)**

5A220203-Umumiy tarix mutaxassisligi

Magistr akademik darajasini  
olish uchun yozilgan  
**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: prof.Farmonov R.F.**

**Samarqand - 2012**

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
I Bob. Fransiyada 1848-yil inqilobining rus manbalarida aks etishi	
1.1 Mamlakatda inqilob arafasidagi ijtimoiy - siyosiy vaziyat.....	8
1.2 1848-yil inqilobining boshlanishi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ishchilar munosabati.....	15
1.3 1848-yil inqilobi A.I. Gersen talqinida.....	29
II Bob. Fransiya 2-respublika (1848-1851) tarixi rus manbalari va zamondoshlar nigohida.	
2.1 Burjua respublikasining ta'sis etilishi – P.V.Annenkov va A.N.Karamzinlar qarashlarida.....	37
2.2 Respublika davri voqealari – A.de Tokvil va V.Gyugo kabi zamondoshlar nigohida.....	48
2.3 Fransiyada 2-respublikaning halokati.....	55
Xulosa.....	66
Foydalanilgan manba va adabiyotlar.....	69
Ilova	

## **Kirish**

**Mavzuning dolzarbligi:** Bizning tadqiqotimiz Fransiya 2-respublikasi tarixining rus manbalarida yoritilishi bo'lib, mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, o'z tariximizni haqqoniy yoritishga, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebaho merosimizni o'rganish va ulardan kelajak avlod tarbiyasi uchun beminnat foydalanish huquqini qo'lga kiritdik. Shu bilan birgalikda jahon ilm-fani yutuqlari, dunyo xalqlari taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari bilan tanishish va ulardan kerakli yangiliklarni mamlakatimiz va xalqimiz kelajagi yo'lida foydalana olish imkoniyatlariga ega bo'ldik. Qolaversa, bugungi globalashuv jarayoni va axboratlashgan jamiyatda yashar ekanmiz, albatta dunyo xalqlari va davlatlari tarixini bilishimiz, jahon mamlakatlarining shu davrgacha taraqqiyot bosqichlari qanday kechganligini ko'z oldimizga keltira olishimiz lozim.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “ Xalqaro maydonda biz, boshqa mamlakatlar bilan sog'lom fikr musobaqasiga, ijobiy raqobatga kirishmog'imiz lozim bo'ladi. Bizning kelajagimiz mana shu musobaqa va raqobatga qay darajada bardosh bera olishimizga bog'liq. O'ylaymanki, buning uchun millatimizning salohiyati, aql-zakovati ham yetarli ”<sup>1</sup>. Bu fikrlar shuni ko'rsatadiki, biz kelajagi buyuk davlat qurishimiz uchun dunyo hamjamiyatiga yuz tutmog'imiz hamda ilmiy-texnik va sanoat ishlab chiqarishi yuqori mamlakatlar taraqqoyoti bilan uzviy bog'lanishimiz lozim. Hech bir davlat yo'qki, o'z qobig'iga o'ralib yasholmaydi, xalqning to'la ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, yoshlarning intellektual salohiyatini yuqori darajada ko'ra olish qiyin bo'ladi.

Prezidentimizning “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida ” nomli asarida aytilganidek, “... O'ta muhim jihat shundaki, mamlakatimizda huquqiy-demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida avval-boshdanoq asosiy ustuvor yo'nalishga aylangan masalalar- tinchlik va barqarorlikni saqlash, millatlararo hamjihatlikni tubdan isloh qilish kerak ”<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. T., “Sharq”. 1999. 80-bet.

<sup>2</sup> I.A.Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., “O'zbekiston”.2011. 5-bet.

Ma'lumki, Fransiya 2-respublikasi tarixi davrida fransuz xalqining ijtimoiy tuzumi, iqtisodiy hayoti hamda siyosiy boshqaruv holati qanchalik qiyinchilik bilan kechganligini tadqiqotimizni yozishdagi asosiy manbalar ma'lumot beradi. Shu o'rinda mavzuni tanlashimiz va uni o'rganishdagi dolzarb jihatlaridan yana biri bu Fransiya davlati bilan ko'p asrlardan buyon savdo-sotiq va diplomatik aloqalarning mavjudligidadir. Ayniqsa, Amir Temur va temuriylar davridagi munosabatlar o'ziga xosdir. Bugungi kunda esa, O'zbekiston va Fransiya munosabatlari harqachongidan ham yaxshi olib borilmoqda.

Prezidentimiz so'zlari bilan aytganda, "Bugun biz tez suratlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharxlovchi va jurnalistlar, bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana kimdir yalpi axboratlashuv davri sifatida izohlaydi"<sup>3</sup>. Demak, bugungi kun tariximiz oldida jahon tarixini o'rganish va bu sohada yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ekanligi ko'rsatadi.

**Magistrlik dissertatsiyasining maqsad va vazifalari:** Fransiya 2- respublika tarixining rus manbashunoslari asarlarida o'rganilishini tahlil qilib, yangi fikrlarni jamlash va ular ustida ishlab, yig'ilgan ma'lumotlarni tadqiqot ishi darajasiga yetkazish.

Tadqiqot ishimiz ikki bob va oltita banddan iborat bo'lib, unda Fransiya 2-respublika davri voqealarining rus manbalarida yoritilishi to'liq qamrab olingan. Tadqiqotimizda asosan rus manbashunoslari P.V.Annenkovning " Парижский письмо", A.I.Gersenning " Писма из Франция и Италии", " Былое и думы ", A.H.Карамзин. "Письмо А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 г." nomli asarlaridan foydalanildi. Bu manbalar asosida tadqiqot mavzuning umumiy va xususiy jihatlarini o'z qamroviga oldi.

---

<sup>3</sup> I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat".2008. 110-bet.

I-Bobda Fransiyada 1848-yil inqilobi arafasida mamlakatdagi ijtimoiy – siyosiy ahvol, aholining iqtisodiy turmush tarzi hamda inqilobning kelib chiqish sabablari ko'rsatildi. Shundan so'ng esa inqilobning boshlanishi va unda ishchilarning ishtiroki, dehqon va hunarmandlarning harakatdagi o'rni haqida to'xtalib o'tildi. Bobning oxirgi bandida A.I.Gersenning 1848-yil inqilobiga fikrlari alohida o'rganildi. Shu orqali bu bobda 1848-yil inqilobining kelib chiqish sabablari va respublikaning e'lon qilinishi haqida yaxlit fikrlar mavjud bo'ldi.

II-Bobda esa Burjua respublikasining ta'sis etilishi P.V.Annenkov va A.N.Karamzinlar asarlarida yoritilishi jarayonini, ularning asarlarida bu masalaga qanday munosabatda bo'linganligi hamda o'zaro bog'langanlik holatlari yotilgan bo'lsa, keyingi bandida respublika davri voqealarining guvohi bo'lgan zamondosh fransuz tarixshunoslari A.de Tokvil va V.Gyugolarning fikrlari va mulohazalari ko'rib chiqilgan. Bu zamondoshlarning fikrlarini olishdan maqsadimiz, biz o'rganayotgan rus manbashunoslari ham qisman shularning asarlaridan foydalanganli sabab bo'ldi. Undan tashqari bu zamondoshlar Fransiyadagi voqealarning to'la va aniq yoritilishida ham muhim hisoblanadi. Bobning oxirgi bandida Fransiya 2-respublikasining tugatilishi va mamlakatda qaytadan imperiyaning qaror topishi voqealarini rus manbalarida yoritilishi jarayoni qamrab olingan. Lui Napoleon Bonaportning respublikaning tugatilishidagi nayranglari haqida tarixshunoslikdagi ayrim ma'lumotlar bor. Chunonchi, "Ayrim davrlarda mamlakat ham mavjud teatr sahnasiga o'xshab ketadi, unda aktyorlar yomon spektaklni yaxshilab o'ynashga erishadilar. Agarda Lui Napoleon aqlli va ilohiy shaxs bo'lganda edi, u hech qachon Fransiyada prezidentlik boshqaruvida ega bo'lmas edi"<sup>4</sup>.

Tadqiqot ishimizni yozishdagi manbalarda bergan ma'lumotlarni bevosita tarixshunoslik ma'lumotlari bilan ham bog'lab, respublika davrida Fransiyada umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot qay darajada bo'lganligi hamda mamlakatdagi voqealarning tarixiy ahamiyati haqida ham mulohaza yuritdik.

---

<sup>4</sup> Р.Ф.Фармонов. Развитие французской общественно политической мысли в годы Второй республики(1848-1851). М., 1992. Стр 25.

**Tadqiqotning o'rganilish dajasi:** Fransiyada 2-respublika davri tarixining o'rganilish darajasini tadqiqotimizda o'rganilgan rus manbahunoslaridan P.V.Annenkovning “ Парижские письма”, A.I.Gersenning “ Письма из Франции и Италии”, “ Былое и думы ”, A.H.Карамзин. “Письмо А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 г.” nomli asarlarni manba sifatida qaraydigan bo'lsak, undan tashqari XX asr rus tarixshunosligida ham bu mavzu ancha dolzarb bo'ldi. Chunonchi, N.Ye. Zastenker “ Революция 1848 года во Франция”, A.Z. Manfred “ История Франция ”, A.I.Molok “ Революция 1848 года и наша современность” A.R. Ionnisyan “ Революция 1848 года во Франция и коммунизм”, A.L.Roxau “История Франция от низвержения Наполеона I до восстановления империя 1814- 1852.”, M.I.Mixaylov “Революция 1848-1849 годов в зарубежной историографии”, L.A. Bendrikova “Французская историография революции 1848-1849 году во Франция” kabilar hisoblanadi. Undan tashqari mamlakatimizda ushbu mavzu yuzasida shug'ullangan tarixchilardan R.F.Farmonovning “ Развитие французской общественно политической мысли в год Второй республика (1848-1852)”. asarini ham kiritishimiz mumkin. Bu asarlar Fransiya 2-respublikasi davri voqealarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** Tadqiqotimizning asosiy ilmiy yangiligi bu Fransiya 2-respublikasi tarixining rus manbalarida aks ettirilish jarayonini o'rganish orqali, bildirilgan fikrlarni solishtirib, ulardan Fransiyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotidagi yangiliklarni ko'ra olinganligidir.

**Tadqiqot ob'yekti:** 2-respublika davrida mamlakat aholisining ijtimoiy ahvoli, davlat boshqaruv tizimidagi amalga oshirilgan islohatlar, mamlakat bo'ylab tarqal ijtimoiy-siyosiy nizolarning kelib chiqish sabablari hamda prezidentlik boshqaruvining umumiy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqot predmeti:** Tadqiqot ishimizning ob'yektini Fransiyada 2-respublikaning vujudga kelishi, mamlakatda prezidentlik boshqaruvining o'rnatilishi, respublika davri voqealarida aholining umumiy ishtiroki hamda mamlakatdagi umummilliy jarayonlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati:** Magistrlik dissertatsiyamizning asosiy ilmiy - amaliy ahamiyati bu Fransiya 2-respublika tarixini o'rganishdagi rus manbalaridagi ma'lumotlarni umumiy o'rgangan holda yagona umumlashgan fikrlarni berganligi. Fransiya respublika davrining xalq ommasini hayoti uchun qay darajada yengilliklar olib kelganligi yoki respublika davrining salbiy jihatlari haqida mustaqil fikr yuritilganligi bilan ahamiyatlidir.

Shu o'rinda aytish kerakki, fransuzlarning demokratiya uchun, parlamentar respublika asoslari uchun, plyuralizm uchun, prezident hokimiyatining tasdiqlanishi uchun qattiq turib kurashganliklari insoniyat oldida va jamiyat oldida buyuk xizmatlari bo'ldi. Agarda siyosiy kurashlarning ikkinchi darajali tavsilotlaridan ko'z yumgan taqdirimizda ham, fransiya demokratiya uchun kurashda yetakchi bo'ldi, o'z kurashi bilan monarxiya va konservativ tartibni yemirishga harakat qildi. Insoniyatni sinfiy va parlamentar kurashlarda siyosiy fikrlash va ijtimoiy yetakchilikning yangi darajasiga ko'tardi.

## **I Bob. Fransiyada 1848-yil inqilobining rus manbalarida aks etishi**

### **1.1 Mamlakatda inqilob arafasidagi ijtimoiy - siyosiy vaziyat**

XIX asrning 40 -yillarida qishloq va shahar aholisining keng ommasi juda tez qashshoqlashib bordi. Shuning uchun ham 1841-yildan 1847-yilgacha Fransiyada ishchi va dehqonlar hamma joyda kurashga otlandilar. Ishchilar dehqonlar bilan birgalikda ko'p vaqtda hukumat askarlari va politsiya bilan qonli jang qildilar.

1846-1848-yillardagi stachkalar ichida Riv-J'e shaxtyorlarining aprel oyidagi ish tashlashi alohida o'rin tutadi, bu ish tashlash bir yarim oycha davom etgan edi. Shahar va qishloq aholisining keng tabaqalari shaxtyorlarning ish tashlashini qo'llab – quvvatladi. Tur shaxrida noyabr oyida ko'tarilgan ish tashlash harakati siyosiy tus olib, Tur ishchilarining qishloq kambag'allari bilan aloqa bog'laganliklarini ko'rsatdi.

1841-yilda aholini va soliq obyektlarini ro'yxatga olish munosabati bilan ko'tarilgan g'alayonlar zo'r inqiloblashtiruvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ba'zi joylarda soliq inspektorlari paydo bo'lgan vaqtdayoq minglab dehqonlar, hunarmandlar, ishchilar qo'zg'aldilar. Inspektorlar haydab yuborilardi, ro'yxat yirtib tashlanardi, faqat katta harbiy qismlar kelgach, ko'pincha qattiq barrikada janglaridan keyingina ro'yxatchilarning ishi yangidan boshlanardi.

1841-yilda Tuluzada ( iyul), Klermon-Ferranda ( 9-10 sentabr), Lill (avgust-sentabr) va uning atrofida ko'tarilgan katta qo'zg'alonlarda shaharlar va ular atrofidagi qishloqlarning ming-minglab aholisi qatnashdi.<sup>5</sup> Tuluza, Klermon – Ferran va boshqa ko'pgina shaharlarda 1841-yilda soliq'larga qarshi ko'tarilgan g'alayonlar vaqtida ko'chalarda inqilobiy gimn yangradi. Xalq katta harbiy qismlar kelguncha, bir oz vaqt g'alaba qozondi.

Bu jarayonlarda 1840-yil oktabrda hokimiyatni o'z qo'liga olgan Gizoning faoliyatiga to'xtalishimiz muhim hisoblanadi. U rasman faqat tashqi ishlar ministri lavozimida bo'lsada, haqiqatda 1848-yil inqilobiga qadar hokimiyatni o'z qo'lida tutib kelgan ministrlarning boshlig'i edi. 1847-yil sentabrda Gizo rasmiy ravishda Ministrlar sovetining raisi bo'ldi.

---

<sup>5</sup> П.В.Анненков. Парижские письма. М., 1983. Стр 159.

Konservatorlarga aylanib ketgan sobiq liberal Gizoning hokimiyat tepasiga kelishi iyul monarxiyasining butun siyosatida o'ngga qarab burilish yuz berganini bildirar edi. Xalqaro ishlarda bu burilish Fransiya dushmanlariga, uning savdo sohasidagi raqiblariga yon berishdan iborat edi. Fransiya Angliyaning Yaqin Sharqda ustunlik qilishini tan oldi va o'zining Misr, Suriya, Marokashdagi bosqinchilik planlarini amalga oshirishni kechiktirdi. Fransiya hukumati Gaiti oroli ustida kelib chiqqan janjal vaqtida (1843-1845) ham Angliyaga yon berdi. Gizo hukumati 1846-yilda Polsha mustaqilligining so'nggi qoldig'ini tugatishga to'sqinlik qilishga jur'at qilmasdan, Krakov shahrining Avstriya imperiyasiga qo'shib olinishiga rozi bo'ldi. Fransiya Gizo hukumatining xohishi bilan Shvetsariyadagi fuqarolar urushi vaqtida reaksion Zonderbund tomonini oldi. Bu esa Fransiya diplomatiyasining yana bir mag'lubiyati edi. "Fransiya, - deb yozgan edi A.I.Gersen, - hatto 10 yil ilgari darajada ham turib qolmadi, - u ikkinchi darajadagi davlatga aylandi"<sup>6</sup>.

Ichki siyosatda Gizo har qanday saylov yoki parlament reformasiga tish-tirnog'i bilan qarshi chiqdi. Saylovchilar uchun belgilangan yuqori mulk senzini pasaytirish to'g'risidagi talablarga Gizo: "Boyingiz, janoblar, undan keyin saylovchi bo'lasiz" deb javob berdi.

Gizoning reaksion siyosati sanoat burjuaziyasi o'rtasidagi oppozitsion kayfiyatni kuchaytirdi va Fransiyadagi butun mehnatkash aholining noroziligini keskinlashtirib yubordi.

Fransiyada siyosiy muvozanatning keskinlashuviga juda muhim iqtisodiy voqealar: 1845-1846 yillardagi kartoshka, bug'doy, no'xat hosili unmag'anligi va 1847-yil kuzida Angliyada boshlanib, sal vaqt ichida Yevropa qit'asidagi malakatlarga yoyilib ketgan umumiy savdo-sanoat inqirozi katta turtki bo'ldi hamda yangi burjua-demokratik inqilobining boshlanishini tezlashtirdi.

Fransiyada ham, Angliyadagi singari, sanoat inqirozi oldidan sanoat yuksaldi, shuningdek temiryo'l qurilishida spekulyatsiya juda avj oldi. Qishloq xo'jaligida yuz bergan ofatlar Angliyada ham juda katta ta'sir ko'rsatdi. Chetdan keltirilgan

---

<sup>6</sup>. А.И.Герцен. Письмо из Франция и Италии. М., 1950. Стр 25.

g'allaning haqini to'lash uchun Angliya bankining oltin zapasidan million-million funt sterling pul olib, uni tezlik bilan chet ellarga yuborish kerak edi. 1847 yil kuzida Londondagi pul vahimasi ana shunday sharoitda ko'tarildi. Angliya banki, uning ketidan boshqa banklar ham pul berishni kamaytirdi. Natijada ko'pgina savdo-sanoat firmalari sindi. Bularning hammasi Fransiyada ham takrorlandi; lekin Fransiyadagi inqirozning inqilobiy vaziyatda yetilishi bilan katta xususiyatlari bor edi. Fransiyada kredit ishlari ilgari ham Angliyadagi darajada rivojlanmagan edi; shu sababli, Angliyadan farq qilib, Fransiyada 1847-yilning so'nggi oylarida inqiroz eng yuqori nuqtasiga yetmagan edi ( buning ahamiyati juda katta edi). Aksincha, 1847-yilning so'nggi oylarida juda ko'p mayda savdogarlar va sanoatchilargina sindi. Shu bilan birga inqiroz sharoitida chet el bozorida savdo qilolmay qolgan katta-katta –Parij savdogarlari o'z ishlarini ichki bozordagi savdo –sotiq bilan saqlab qolmoqchi bo'ldilar.“ Ular katta – katta firmalar tuzdilar, bu firmalarning raqobati mayda baqqollarni va do'konlarni ko'plab xonavayron qila boshladi. Parij burjuaziyasining bu qismi ichida ko'p kishilarning sinishi va fevral kunlarida bu qismning inqilobiy xatti-harakatda bolishining sababi ham shu edi”- deb ta'kidlab o'tgan edi P.V.Annenkov<sup>7</sup>.

1848 – yil boshlarida chet ellarga metall ishlash sanoati buyumlari, polotno, jun va shoyi tovarlar hamda ko'pgina boshqa buyumlar chiqarish kamaydi.

1847-yilgi moliya inqirozi ham katta va alohida ahamiyatga ega bo'ldi. 1847-yildagi davlat defitsiti butun byudjetining 25 % ga yetdi. Davlatning qarzga botishi moliya aristokratiyasi uchun foydali edi. Ya'ni, doimiy davlat defitsiti, agar u, davlatni sindirish xavfini tug'dirmasa, bankirlar birja vakillari uchun- davlatga qarz berib turuvchilar uchun haqiqiy daromat manbai edi. Lekin 1847-yildagi inqiroz sharoitida moliyachilarning shaxsiy mafaatparastligi moliya aristokratiyasining o'ziga zarar yetkazdi, omonat kassalari bo'shab qoldi, pul quyuvchilarning o'z pullarini qaytarib oldilar. Gizo davlatning sinishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, ichki zayom chiqarishga majbur bo'ldi.

---

<sup>7</sup>. П.В.Анненков. Парижские письма. М., 1983. Стр 160.

Iqtisodiy inqiroz va hosilsizlik natijasida mehnatkashlar ommasining, mayda burjuaziya keng tabaqalarining ahvoli 1846-1847 yillarda juda ham o'g'irlashib ketdi. Shu munosabat bilan ommaning aktivligi kuchaydi, bu aktivlik g'alla spekulyatlarining uylari va omborxonalariga qilingan hujumlarda, ish tashlashlarda aks etdi. 1847-yilda oziq-ovqat qahatchiligiga qarshi ko'tarilgan g'alayonlar ichida Byuzans shahrida ikkita g'alla spekulyarining o'ldirilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1847-yildagi ish tashlash harakatiga Nant shahridagi g'isht teruvchilar va binokor ishchilarning, ko'pdan-ko'p qamoqqa olishlarga va shaharda harbiy qismlar bo'lishiga qaramay, uch oy chamasi ya'ni 1847-yil sentabrgacha davom etgan ish tashlashlari zo'r matonat va uyushqoqlik bilan o'tkazildi.

Ziyofat kompaniyasi deb atalgan kompaniya 1847-yilda yangidan boshlanib ketdi. Ishchilar, 1840-yildagidek, ba'zi ziyofatlarda qatnashdilar. 1848-yil 2 yanvarda Limojda bo'lib o'tgan ziyofat alohida ahamiyatga ega bo'ldi<sup>8</sup>. Bu ziyofatni Per Leruga atab uyushtirilgan edi, lekin ziyofatda qatnashgan ishchilar o'zlarining ma'lum maqsad va vazifalarini ko'rsatishga ham harakat qiladilar.

1847-yilda “ progressiv konservatorlar” ning yangi burjua-monarxistlar gruppasi vujudga keldi. Bu gruppaga orleanist publitsist de Jirarden boshchilik qildi. U 1847-yilda: “ Biz– oppazitsiyadamiz, ammo oppazitsiyadan emasmiz” dedi. Bu gruppaning vujudga kelishi “ yuqori tabaqalar inqirozi” ning o'ziga xos ko'rinishi edi. Haqiqatdan ham, kechagina Lui-Filipp monarxiyasining sodiq tarafdorlari bo'lgan “ progressiv konservatorlar” hukumat tepasidagi partiyadan faqat chuqur siyosiy inqiroz sharoitidagina ajralib chiqa oladilar. “Progressiv kuchlar” ning dasturi boshda faqat iqtisodiy islohatlar bilangina cheklangan edi, lekin keyin “ progressiv konservatorlar” ham saylov islohatini yoqlab chiqdilar.

Monarxistlarning ilgari ham oppazitsiyada bo'lgan boshqa bir gruppasiga, avvalgicha, advokat Odilon Barro boshchilik qildi: “ sulola oppozitsiyasi” deb atalgan bu gruppam ham orleanistlardan iborat bo'lsada, u monarxist yirik savdo-sanoat burjuaziyasiga mansub bo'lgan shunday doiralarning partiyasi sifatida vujudga keldiki, bu doiralar davlat hokimiyatidan foydalanmas edi.

---

<sup>8</sup>. П.В.Анненков. Парижские письма. М., 1983. Стр 164.

Inqilobdan qo'rqishda " progressiv konservatorlar" dan qolishmagan " sulola oppazitsiyasi" inqilobiy vaziyat sharoitida o'zining: " Inqilob bo'lmasligi uchun islohat o'tkazish kerak" degan shiorini amalga oshirish ushun zo'r berib kurashdi. " Sulola oppazitsiyasi" ning aktivlashuvi va uning burjua respublikachilar bilan ittifoq tuzishi Barro gruppasining 1847-yilda qanday taktika tutganini ko'rsatadi. Liberal O.Barro Parijda 1847-yil 9 iyulda o'tkazilgan ziyofatning tashabbuskorlaridan biri edi. Biroq bu ziyofatda burjua demakratlar ta'siri ostida xalq suvereniteti uchun qadah ko'tarildi.<sup>9</sup>

Matbuotda va 1847-1848 yillardagi ziyofatlarda burjua respublikachilarning bir-biridan juda katta farq qiladigan ikki guruh nomoyandalari bor edi. Bu guruhdan bittasiga Fransiya ishchilari tomonidan juda boplab " janobchalar gazetasi" deb laqab qo'yilgan " Natsional " gazetasi burjuaziyaning bironta alohida fraksiyaning organi emas edi. "Natsional" gazetasi partiyasi "respublikachilik kayfiyatidagi burjualar, yozuvchilar, advokatlar, ofitserlar va chinovniklar" dan iborat edi. Ammo "Natsional" sanoat burjuaziyasi o'rtasida katta muvaqqiyat qozondi, u sanoat proteksionizmi sistemasini himoya qildi. Burjua inqilobining va Napoleon zamonlarining uch rangli bayrog'I "Natsional" tarafdorlari " Uch rangli respublikachilar" deb atalar edi. Uch rangli respublikachilar ijtimoiy islohatlar talab qilmadilar, ular faqat siyosiy tuzumni o'zgartirishgagina intildilar.

Aksincha, umumiy saylov huquqi bilan bir qatorda xuddi ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar talab qilish "Reforma" gazetasining muharriri Ledryu-Rollen boshchiligidagi mayda burjua respublikachilar dasturining asosiy mazmuni edi. Ishchilar turmushini yaxshilash va ishchilar bilan siyosiy ittifoq tuzish iyul monarxiyasining so'nggi yillarida "Reforma" gazetasi tomonidan ilgari surilgan vazifalar jumlasiga kirar edi.

Burjua respublikachilarning ikkala guruhi ham saylov islohatini targ'ib qilishda, 1847-48 yillardagi ziyofatlarda qizg'in qatnashishdi. Ziyofat kompaniyasi Fransiyada ijtimoiy va siyosiy harakatning yuksalishiga yordam berdi, kampaniyani liberallar boshlagan bo'lsa-da, uning natijalari demakratlarga foyda

---

<sup>9</sup>. А.И.Герцен.Былое и думы.М., 1973. Стр 145.

keltirdi. Ziyofat kampaniyasi burjua respublikachilar va mayda burjua demakratlarning siyosiy kamchiliklarini ko'rsatib berdi. 1848-yil 19 yanvarga belgilangan, lekin hukumat tomonidan taqiqlangani uchun 22-fevralga ko'chirilgan Parij ziyofatini uyushtirish ichun kurash burjua-demakrat inqilobining muqaddimasi bo'lib chiqdi.<sup>10</sup>

Inqilob arafasidagi ijtimoiy hayot va siyosiy vaziyatga A.I.Gersening qarashlariga e'tibor beradigan bo'lsak, u aytadiki, Fransiyada feodalizm yo'q edi. Lekin qirol Lui Filipp davrida siyosiy hokimiyat faqat burjuaziyaning yuqori tabaqasi qo'lida edi. Kapitalizm rivojlangan sari sanoat burjuaziyasi boyib bordi. Lekin Fransiyada burjuaziyaning keng qatlamlari hatto saylov huquqiga ham ega emas edilar. Siyosiy jihatdan huquqsiz bo'lgan ishchilar sinfining ahvoli ham nihoyatda og'ir edi.

A.I.Gersen Fransiyada 1848-yilgi inqilobiy vaziyat burjua keng qatlamlarining o'z siyosiy huquqsizligidan noroziligi va ishchilar sinfining kapitalistik ekspluatatsiyaga qarshi kurashi natijasida vujudga kelgan edi deb yanada soddalashtirib izohlab beradi<sup>11</sup>.

Bundan tashqari mamlakatda iqtisodiy muommolar ham yuzaga keldi. Kartoshka kasalligi orqasidan paydo bo'lgan qahatchilik munosabati bilan Fransiyada xalq ommasining ahvoli keskin yomonlashdi. Kartoshka kasalligi 1845-1847-yillar mobaynida butun Yevropa bo'ylab tarqalgan edi. Buning oqibatida asosiy yeguligi kartoshka bo'lgan kammag'allarning ahvoli ancha og'irlashib qoldi. 1847-yilda navbatdagi iqtisodiy inqiroz boshlanib, bir qancha kapitalistik davlatlarni qamrab oldi. Fransiyada sanoat ishlab chiqarishi 50% ga qisqardi, ommaviy ishsizlik boshlandi.

---

<sup>10</sup> . А.Н.Карамзин. Письмо А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 г. М., 1935. Стр 11.

<sup>11</sup> А.И.Герцен. Письмо из Франции и Италии. М., 1950. Стр 27.

Burjuaziya qattiq turib, saylov islohatini o'tkazishni talab qildi. Ko'p kishilik banket-majlislar tashkil qilinib, qadah ko'tarish bahonasi bilan siyosiy nutqlar so'zlandi. Ishchilar burjuaziyaning saylov haqidagi talabini qo'llab quvvatladilar.

Hukumat poraxo'rlik, har xil firibgarlik botqog'iga botib ketdi va yirik burjuaziyaning bir qismi oldida ham o'z obro'yini yo'qotib qo'ydi. Mamlakatda inqilobiy vaziyat kundan kun avj olib ketdi<sup>12</sup>.

23-fevralda qo'shinlar quolsiz olomoni o'qqa tutdi, 50 dan ortiq kishi o'ldirildi. Shundan keyin butun mehnatkash patij aholisi kurashga otlandi. Mamlakat bo'ylab barrikada janglari avj olib, qurolli to'qnashuv Parij shahrining deyarli barcha ko'chalari bo'ylab tarqaldi. Barrikada janglarining asosiy qatnashchilari hunarmandlar, ishchilar hamda mayda burjuaziya vakillaridan iborat edi. Biroq yirik burjuaziya jamoasi namoyishchilarga qarshi uyushqoqlik bilan harakat qilishdi, barrikadalar soni kengayishining oldini olish uchun barcha choralardan foydalandi.

Hukumat qo'shinlari yirik burjuaziya va ayrim feodal-monarxiya tarafdorlari yordami bilan namoyishchilar o'rtasiga ixtilof solishga urindilar, namoyishchilarni turli yolg'on g'oyalari bilan chalg'itishga intildi. Ammo qo'zg'alonchilar bu aldovlarga uchmadilar, ularni shiddat bilan harakat qilishda ayrim yetakchi inqilobchilar ma'naviy qo'llab-quvvatladilar. Shulardan biri Ogyust Blank bo'lib, u qo'zg'alonchilarni hukumat tomonidan berilayotgan moddiy yordam va ijtimoiy imtiyozlar vaqtinchalik ekanligini hamda siyosiy huquqlarni deyarli bajarmasliklarini uqtiradi<sup>13</sup>.

1848-yil 25- fevralda mamlakat bo'ylab yirik namoyish yuzaga keldi, namoyishchilar hukumat rahbarlariga qat'iy talablar qo'yishdilar. Namoyishchilarning talablari birinchi navbatda mamlakatdagi ijtimoiy huquqlar va siyosiy boshqaruv tuzumi haqida edi.

---

<sup>12</sup> А.Н.Карамзин. Письмо А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 г. М., 1935. Стр 21.

<sup>13</sup> . П.В.Анненков. Парижские письма. М., 1983. Стр 159.

## **1.2 1848-yil inqilobining boshlanishi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ishchilar munosabati**

1848-yil 23-fevral kechqurun Parij markazi Kaputsino bulvarida fojiaiy qo'zg'alon boshlandi. Gizo yashagan tashqi ishlar vazirligi binosi tomon yo'l olgan quolsiz demonstrantlar to'dasi binoni qo'riqlovchilar tomonidan otib tashlandi. Bir necha o'nlab odamlar halok bo'ldi, bir qanchasi yaralandi. Bu mudhish voqea to'g'risidagi xabar butun shahar bo'ylab tarqaldi, Parijning barcha mehnatkash aholisi oyoqqa turdi. Minglab ishchi, hunarmandlar, talabalar jangga kirdi va bir kechada 1500 dan ortiq barrikada qurishdi. Monarxiyaga qarshi qo'zg'alon umumxalq xarakteriga ega bo'ldi. Uning o'zagi va tashkil etuvchi kuchi maxfiy respublika jamiyatlari a'zolari bo'lishdi.

24-fevral tongida Parij ko'chalaridagi kurash avj oldi. Milliy gvardiyaning katta qismi qo'zg'alonga qo'shildi. Xalq okruglar meriyalarini bosib olishdi. Peshinga borib qirol qarorgohi – Tyumliriy saroyiga qo'zg'alonchi xalq otryadi hujum boshlashdi.<sup>14</sup> Lui-Filiff chorasis holatda qolib taxtdan voz kechadi. Bundan keyin qirol va uning oilasi poytaxtni tark etib Angliyaga qochadi. Tyumliriy saroyi xalq tomonidan bosib olinadi, qirol taxti Bastiliya maydoniga ko'chirilib va tantanali ravishda yoqib yuboriladi.

Respublika deputatlari guruhleri Lamartinni o'z tomonlariga og'dirib, Muddatli hokimiyatni tuzish taklifi bilan chiqdi va shu yerda masalani parlamentning majlislar zaliga bostirib kirgan barrikada jangchilari hal qildi. Muddatli hokimiyatning shakllanishi Fransiyaning an'anaviy joyi – Parij shahar Ratushasida sodir bo'ldi. Lekin bu bilan xalq isyoni yakunlanmadi. Vaqtli hukumat tarkibi to'g'risidagi “Natsional” va “Reform” arboblari o'rtasidagi tortishuvlar vaqtida qo'shni xonada “Xalq deputatlarining ” o'zboshimcha qo'mitasi tuzildi, bu qo'mita hukumat ishlarini kuzatishni, uning majlislarida ishtirok etishni, xalqqa zudlik bilan uning natijalari va so'zsiz respublikaning e'lon qilinishi kerakligini xoxlagan.

---

<sup>14</sup> А.Н.Карамзин. Письмо А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 г. М., 1935. Стр 24.

Bu markaziy masalaning yechimi inqilob g'alabasi davrida sinfiy kuchlarning o'ziga xos munosabatlarini yorqin namoyan etdi. O'z tarkibiga ko'ra Vaqtli hukumat koalitsiyasi edi. Hukumatdagi raxbarlik roli burjuaziya – respublikachi vazirlariga tegishli edi, ularga asosiy hukumat lavozimlari tegishli edi. Vaqtli hukumat raisi etib 1830-yil inqilobi ishtirokchisi qariya Dyupon de L'er saylandi. Hukumatning haqiqiy rahbari tashqi ishlar vaziri lavozimida ishlagan Lamartin edi. "Reforma" ning mayda burjuaziya sardorlaridan faqat Ledryu- Rollan tashqi ishlar vaziri lavozimini olgan. Fevral inqilobi davrida Parij proletariyati katta kuch va ta'sirga ega edi.

Kuchlarning haqiqiy munosabati respublika haqidagi masalani chiqardi. Lamartin, Dyupon, Kremer va boshqa burjuaziya vazirlari bu masalaning yechimini topishga qarshilik qildi. 24-fevral kechki soatlarda Lamartin va boshqa vazirlar zudlik bilan respublikaning e'lon qilinmasligi uchun har tomonlama harakat qilishdi. Biroq Parij ishchilari respublika haqidagi masalaning yaxshi tomonga hal bo'lmasligini bilib, norozilik bildirdi. Ular tezkor, aniq, hech bir to'siqlarsiz yechimini topishga qilishgan. 25-fevral ertalab xalq ommasi Ratusha binosi va maydonni yana to'ldirdi.

Hukumat tepasiga kelgan ishchi deputatlari zudlik bilan respublikaning e'lon qilinishini talab qildi, uning boshida mashhur inqilob arbobi, shifokor Raspayl turgan, u Parij ishchilari orasida jida mashhur edi.<sup>15</sup> Agar bu talab 2soat davomida bajarilmasa, 200 ming parijliklar bilan kelib yanqi inqilobni amalga oshirishni aytib po'pisa qilgan. Bu po'pisa ta'sirga ega bo'ldi. Ikki soat o'tmay respublika e'lon qilindi. Parij ishchilari respublika to'g'risidagi burjuaziyadan farq qiluvchi tasavvurlardan ta'sirlangan. Fransiya ishchilarida respublika shiori ozodlik, tenglik, do'stlikni amalga oshiruvchi g'oya va orzular bilan uzliksiz bog'liq edi. Shuning uchun ham Parij ishchilari fevral kunlari nafaqat respublikani, balki "demokratik va ijtimoiy respublika" ni talab qilgan. Bunday shior nafaqat sinfiy hukmdorlikning monarxik shaklini, balki sinfiy hukmdorlikni o'zini bartaraf

---

<sup>15</sup>. П.В.Анненков. Парижские письма. М., 1983. Стр 171.

etuvchi respublikaga noaniq intilishni ifodalagan. Bu shiorning mazmuni Vaqtli hukumatga respublikaning e'lon qilinganidan keyin zudlik bilan ishchi qo'zg'alonchilarning qizil bayroqni respublikaning davlat bayrog'i deb tan olinishi haqidagi ko'rsatilgan talabida, shuningdek ishchi delegatsiyaning "mehnat huquqini" qonuniy tan olish haqidagi talabida ochib berilgan.

"Mehnat huquqi" ishchilar ommasida keng tarqaldi. U inqilob davrida ishchilar harakatining asosiy shiori bo'lib qoldi. Bu shior ishchilarning ijtimoiy taraqqiyot, ishsizlikka qarshi kurash talabi va mehnatkashlar uchun ishni kafolatlash uchun bo'lgan kurashni ifodalagan.<sup>16</sup> Shu bilan birga "Mehnat huquqi" ishchilarning notinch sotsialistik intilishi, ishlab chiqarishning kapitalistik anarxiyasini muhokama qilishlari va uni yangilash istagini ifodalagan. Vaqtli hukumat qizil bayroq haqidagi talabni oson rad etishdi. Vazirlar o'rtasidagi kuchli munozaralardan keyin Lui Blan va Alber ishchilarning bu talablari rad etilsa, hukumatdan chiqib ketishlarini aytgan. Vaqtli hukumat ishchi sinfiga yon bosdi. Hukumat tomonidan ish vaqtini 1 soatga qisqartirish haqidagi dekret qabul qilindi. 4-martda Fransiyada 21 yoshga to'lgan erkalar uchun umumiy saylash huquqini kiritish haqidagi dekret qabul qilindi.

Bu voqealarning yakunida Fransiya ishchilari 1848-yilning fevral kunlari XIX asrning birinchi demokratik respublikasini zabt etib siyosiy sharoit tayyorlanmagan. 1848-yil inqilobining tarixiy mazmuni Fransiyadagi burjuaziya tuzumining siyosiy qayta ta'mirlanishi bo'ldi, u yetuk kapitalizmning keng rivojlanishiga bo'lgan to'siqlarni bartaraf etgan bo'lar edi. Sanoat to'ntarishi, fabrika – zavod sanoatining qurilishi va rivojlanishi burjuaziya davlatining yanada yetuk siyosiy shakllarini talab qilgan. Bunday shakllarni yaratish kerak edi. Chunki XIX asrning birinchi yarmida Fransiya burjuaziyasining siyosiy hukmdorligi to'la tashkil etilmadi va sof siyosiy ifodasini topmadi. Haqiqiy siyosiy shakl o'shanda burjuaziya respublikasi edi. Shuning uchun ham Fransiyada XIX asr o'rtalarida burjuaziya – demokratik inqilob ob'ektiv navbatda turgan edi. Biroq sanoat to'ntarilishi sharoitida ko'proq barcha burjuaziya inqilobi qonunlari

---

<sup>16</sup> П.В.Анненков. Парижские письма. М., 1983. Стр 175.

namoyon bo'lgan. Demakratik inqilob anti burjuaziya va antikapitalistik yo'nalishni qabul qilgan ijtimoiy portlash bo'ldi.

Keyingi jarayonlarda inqilobning juda zaif rivojlanishini ko'rish mumkin. Bunday zaiflikning asosiy omillaridan biri yoki manbai sifatida shunday o'ylash mumkinki, ishchi ommasida hukmronlik qilgan jamiyatni tinchlik yo'li bilan qayta qurish imkoni haqidagi soxta tushunchalar edi. Bu mayda burjuaziya soxta tushunchalari inqilobning ilk haftasining vaziyati bilan qo'llab-quvvatlangan.

Ingliz baronessasi Red yaqinlariga Parijdan turib shunday yozgan: "Biz hammamiz soyabonsiz yuramiz va ishchilarimizga bo'ysinamiz".<sup>17</sup>

Barcha joyda "Ishchilar oldida bo'ysinamiz!" degan shior osilgan edi. Ishchilarning buruaziyaga bo'lgan ishonchi Lui Blan va Alberning hokimiyatda mavjud bo'lishi bilan yanada mustahkamlandi. Bu holat "ishchi sinfnining inqilobiy harakatlarini umumiy to'xtatdi". Sotsialist vazirlarning siyosati xiyonatkorona bo'ldi. Ular ishchi ommadan o'zlarining burjua-respublikachi vazirlar bilan kelishmovchiliklarini yashirgan va ularning ishchilarga bo'lgan yovuzlarcha fikrini yashirgan. "Tezkor gvardiya" ning loyihasi birdan ikki qiyonni o'ldirgan. Birinchidan, bu chora inqilobning ilk kunlarida Vaqtli hukumatga yetmagan qurolli kuchlarni tezroq tuzishga yordam berdi, bunda Parijlik ishchilar birma-bir qurollangan va milliy gvardiyada ishtirok etish huquqini olgan. Vaqtli hukumat M.Kassider tuzgan yangi poytaxt politsiyasiga ishonmadi. M.Kassiderning politsiya kuchi barrikada jangchilari va maxfiy jamiyat ishtirokchilaridan tuzilgan bo'lib, Vaqtli hukumatga bo'ysinmasdi. Ular o'zlarini "Inqilobning avtonom kuchi", "montanerlar" deb atashgan. Undan tashqari, "Tezkor gvardiya" ni tuzish bilan hukumat inqilob kuchiga qarshi ishsiz yoshlarni yollashga harakat qilgan. 26-fevralda Parijda ishsizlar uchun ijtimoiy ishlar tuzish haqidagi Vaqtli hukumat qarori chiqdi. Ishsizlarga ish berish poytaxtda ijtimoiy kuchni zaiflashtirish va ishchi ommaning Vaqtli hukumatga bo'lgan ishonchini mustahkamlash zarurligini bayon etgan. Lekin bu yerda ham yashirin maqsadlar bor edi. Ijtimoiy ishlar vaziri

---

<sup>17</sup>. А.Н.Карамзин. Письмо А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 г. М., 1935. Стр 13.

Mari, sotsializmning dushmani bo'lib, ishsizlar uchun ijtimoiy ishning nomini "Milliy ustaxonalar" deb atadi.

1848-yilda Parijda tashkil etilgan "Milliy ustaxonalar" ishlab chiqarish assotsatsiyalari bilan aloqasi yo'q edi. "Milliy ustaxonalar"ning ishchilari ilg'or ishchilar va ularning tashkilotlarining inqilobli va ijtimoiy intilishlariga qarshi kurashishda hukumatning tayanchi bo'lishga ishonishgan. Shu maqsadda "Milliy ustaxonalar" ga harbiylashgan tizim berilgan- unda band bo'lgan ishsizlar "bo'linma", "brigada", "vzvod" larga birlashib "Milliy ustaxonalar" va uning shtablari hukumat komissarlari boshchiligida harakat qilishgan.

Fevral inqilobidan keyin hukmdor sinf tez yangilandi. Inqilob eski ma'muriy apparat tomonidan hech bir qarshilik yoki ziddiyatga uchramadi. Iyul monarxiyasining prakuror va generallari o'zlarining respublikaga xizmat qilishga tayyorligini aytishgan.<sup>18</sup>

Cherkov va ruhoniylar yangi rejimga roziligini bildirgan. Ko'plab orleanchilar va legimistlar respublikani "tan olishdi" va zudlik bilan respublika tarafdoriga aylanishdi. Xalqaro ahamiyatga ega Vaqtli hukumatning yagona progressiv akti 1848-yil aprelda qabul qilingan Fransiya kaloniyalarida qullikni bekor qilish haqidagi qonun bo'ldi. Proletariat kuchini tashkil etish unga mayda burjuaziya mafkurasining va mayda burjuaziya illuziyasining ta'siri sababli to'xtab qoldi. Ommaning siyosiy ongini shakllantirishda demakratik klublarning va demakratik matbuotning faoliyati katta ro'l o'ynadi. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, Parijda inqilobning birinchi oylarida turli yo'nalishdagi 160 ga yaqin gazetalar chop etilgan. O'sha ma'lumotlarga ko'ra, Parijda 1848-yil martida 146 ta klub mavjud edi, keyingi uch oy davomida ularning soni ikki marta oshdi. Bu klublarning ko'pchiligi aniq siyosiy shaxsga va biror bir rasmiy tashkilotga ega emas edi.

Demakratik klublar o'rtasidagi eng e'tiborlisi A.Barros, Sobriye, M.Dyufese va E.Tore tomonidan boshqarilgan inqilob klubi, O.Blanki rahbarlik qilgan

---

<sup>18</sup>. А.И.Герцен. Писма из Франции и Италии. М., 1950. Стр 27.

Markaziy respublika jamiyati, Raspaylning “xalq do’stlari” klubi, E.Kabening “Markaziy birodarlik jamiyati”, shuningdek 1848-yilda tiklangan Iyul monarxiyasi davrining yashirin jamiyati so’l arboblari N.Lebon, Villen va boshqalar tomonidan boshqarilgan “Inson va fuqarolar huquqi jamiyati” edi. Klublar ishchi sinfning etakchi qismini va mayda burjuaziya intelligensiyasiga tegishli edi.

Klub demakratlari va satsiolistlar birdamlik g’oyasining turli qatorlarini targ’ib etishgan. Konsederanning aytishicha, “barcha respublikachilar sotsialistlar edi”, “mehnat, capital va iqtidorda hamkorlik” qilish uchun Vaqtlilik hukumatdan yordam kutgan.<sup>19</sup> Prudon Vaqtlilik hukumatni keskin tanqid qila boshladi. Prudon bunga o’zining Tovar va mehnatni “ekvivalentli almashish” yo’li bilan burjuaziya, proletariat va mayda mulkdorlarning “Iqtisodiy hamkorligi” rejasini qarama – qarshi qo’ydi. Utopiya kommunizmining bunday nazariyotchilari o’z g’oyalari uchun tinch yo’l bilan targ’ib qilishga va Lyuksemburg komissiyasi tomonidan tuzilgan ishlab chiqarish assotsiatsiyasi yutuqlariga ishonch bildirgan.

Bunday istiqbollardan ruhlangan Kabe va Dezami inqilobning butun jarayonini va Vaqtlilik hukumatni chapga surishi kerak bo’lgan demakratiyaning umumiy frontini tuzishga chaqirgan Markaziy respublika jamiyati bahorning oxiriga kelib ishchilardan iborat 3 ming kishidan iborat edi. O.Blanki fevral inqilobini tanqid qilgan, u 1848-yil inqilobi kapitalistik zulm va ekspluatatsiya tizimida hech narsani o’zgartirmadi, deb, isbotlagan: “Shakl o’zgardi, lekin mohiyati saqlanib qoldi. Ibora va bayroqlar ko’paydi”. Uning aytishicha, burjuaziya-respublika hukumati reaksiya bilan til bitiktirib amal qiladi, 1848-yil demakrat arboblari haqiqatda karikatura hisoblanadi. O.Blanki va uning tarafdorlari ishchilarning qirollanishini va milliy gvardiyaning demakratlashuvini, davlat apparatini reaksiya amaldorlardan tozalashni, ishchilar uchun cheksiz demakratik ozodlikni, shuningdek ish tashlash va koalitsiyalar huquqini talab qilishgan.

Xayriya “Milliy ustaxonalar” ga qarshi O.Blanki barcha ishsizlar uchun davlat nafaqalari va ishlayotgan ishchilar bilan bir qatorda ularning qurollanishini

---

<sup>19</sup> П.В.Анненков. Парижские письма. М., 1983. Стр 165.

talab qilgan. Parijning mehnatkash aholisi va ishchilarning g'alabali harakati fevral kunlari O. Blankiga ommaning inqilobdagi hal qiluvchi rolini ko'rsatdi. 26-fevral kechqurun O.Blanki o'zining ba'zi bir tarafdorlarining burjua Vaqtlilik hukumatni ag'darish uchun tezkor yangi qurollangan qo'g'alonni ko'tarish haqidagi taklifini umuman rad etdi.Markaziy respublika jamiyatini tuzish bu masalani hal qilishga yordam berishi kerak edi.

O.Blankining taktik g'oyalari mustahkam g'oyaviy-nazariy asosga ega emas edi. O.Blanki avvalgidek ishchilarning sinfiy kurashi va tarixiy rivojlanish tushunchasidan uzoq edi.<sup>20</sup>Ko'pchilik sotsialistlar kabi blankachilar fevral inqilobini sotsialistik to'ntarishning boshlanishi deb qabul qilgan.O.Blanki avvalgidek ommaning sotsialistik inqilobga uzoq tayyorlanishini tushunmadi. U iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy talablari dasturiga ega emas edi. Blankichilar ishchilarning sinfiy tashkilotlarini mustahkamlash uchun g'amxo'rlik qilishmagan.Inqilob jarayoni to'g'risidagi noaniq tasavvurlari Blankining fitnali taktikadan uzoqlashishni mustahkamlashmadi, chunki bu taktikaga qaytish uchun barcha g'oyaviy zamin saqlanib qolgan.Bu esa Blankini so'l demokratik kuchlarning yagona fronti haqidagi masalani qo'yishdan mahrum qilgan. Barres boshchiligidagi inqilob klubining mayda burjuaziya demakratlari Ledryu-Rollen va Lyu Blan bilan uzviy aloqalarni o'rnatib Blankiga qarshi chiqishdi. Ichki ishlar vazirligi fondi yordamida Blanki va uning tarafdorlariga qarshi siyosiy klublarning federativ birlashmasi –Klublar Klubi tuzildi. Inqilobli ishchilar kuchlarining ajralib chiqishi fevral inqilobi davomida ishchi sinf holatining zaiflashuviga imkon berdi.Ishchilar nafaqat demokratik klublar, balki Lyuksemburg komissiyasi faoliyati orqali bo'linib ketdi.

Lyuksemburg saroyi sotsialistik g'oyalarning targ'ib qilinish markaziga aylandi. Lyuksemburg komissiyasi majlislari haqidagi hisobot va unda o'qiladigan nutqlar nafaqat demokratik matbuotda, balki Fransiyaning "Leoneyor universel" gazetasida ham chop etilgan. Lekin ishchilarning ozodligi haqidagi sotsialistik

---

<sup>20</sup> . А.Н.Карамзин. Письмо А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 г. М., 1935. Стр 28.

g'oyalar Lyuksemburg saroyida ma'lum qilingan. Ishchi va tadbirkorlar vakillari va bir qator taklif qilingan burjua iqtisodchilari va sotsialistik nazariyotchilardan iborat Lyuksemburg komissiyasining umumiy majlisida Lui Blan ishchilar va burjuaziyaning sinfiy hamkorligi yo'li orqali sotsializmga muntazam o'tish va "mehnatni tashkil etish" g'oyasini bayon qildi. U ularning manfaatlarining umumiyligi va birdamligini targ'ib qildi, Vaqtli hukumat va islohatlarga ishonishga chaqirdi.

Lui Blan ishchilarga shunday dedi: "sizning shoshqoloqligingiz, bizning shoshqoloqligimiz hamma ishlarni buzish mumkin".<sup>21</sup>Xuddi shunday g'oyalar Lyuksemburg komissiyasining vositachilik faoliyati asosida yotar edi. Ishchi va tadbirkorlar o'rtasida mehnat nizolari kelib chiqqan. Fevral davrida bunday nizolar juda ko'plab uchragan. Inqilobning birinchi kunlarida Parijda va bir qator sanoat markazlarida ishchilarning ofatli chiqishlari yuz bergan.

To'qimachilik hududlar – Reyms, Sen-Kanten, Ruanda mashina fabrikalar buzilish holatiga kelgan. Lionda ishchilar yetim bolalar mehnatini qo'llagan ipak ustaxonalari tortib olgan monastirlarni vayron qilgan.<sup>22</sup> Ko'mir shaxtalarida ham konchilar boshqaruvchi va injinerlarni haydab, ularning o'rniga ishchilar tomonidan tavsiya etilgan nomzodlardan yangi boshqaruvchilarni tayinlashni talab qilishgan. Parij karxonalarida ish kunini cheklash va mehnat sharoitini yaxshilash talabi bilan ish tashlashlar bo'lib o'tgan.

Lyuksemburg komissiyasi tomonidan bo'lib o'tgan ishchi va tadbirkorlar o'rtasidagi nizolarni to'la burjuaziya va Vaqtli hukumatning ishchi sinfni tinchlantirish uchun bo'lgan harakatiga mos tushdi. Lyuksemburg komissiyasi o'nlab ishlab chiqarish assotsatsiyalarini tashkil etishda ham tashabbus ko'rsatdi. Bu assatsatsiyalar ishsizlikdan qiynalgan hunarmand ishchilarni birlashtirgan. Lyuksemburg komissiyasi faoliyatining muhim tomoni shu ediki, ishchilar ommasiga tashkilotchilikni kiritgan ishchi delegatlarning o'ziga xos institutini hayotga tadbiiq etdi. Bu 699 ta delegat – har bir kasbdan 3 kishidan –

---

<sup>21</sup> А.И.Герцен.Былое и думы.М., 1973. Стр 150.

<sup>22</sup> .П.В.Анненков. Парижские письма. М., 1983. Стр 167.

tegishli ishchilar tomonidan poytaxt maydonlari va yirik korxonalaridagi yig'ilishlarda saylangan edilar.

Shu maqsadlarda o'tkazilgan yig'ilishlar Parij ishchilarining birinchi ommaviy tashkilotining boshlanishiga asos soldi. U inqilob sharoitida nafaqat kasbiy, balki siyosiy harakterga ega edi. Dastlab qur'a tashlash yo'li bilan Lyuksemburg delegatlarining vaqtli qo'mitasi tashkil qilingan, 1848-yil mart oyining oxirlarida o'z byurosiga ega "Sena departamentining ishchi delegatlarining markaziy qo'mitasi" uni o'rnini egalladi. Bu qo'mita butun Parij ishchi sinfining uning tadbirkorlar bilan, ma'muriy va ijtimoiy organlari va davlat bilan o'zaro munosabatidagi talablarni ifodalagan.

"Ishchi delegatlarning markaziy qo'mitasi" mamlakatning siyosiy rivojlanishiga, Vaqtli hukumat siyosatiga o'z ta'sirini kuchaytirishga intilgan. Bunday korxonalar, Lyuksemburg delegatlarining fikricha, tadbirkorlarning ishchi harakatlar bilan ishsizlik va ochlik quroli bilan kurashish harakatiga bo'lgan samarali vosita bo'lib xizmat qilgan.<sup>23</sup> Lyuksemburg komissiyasining tayanchi hunarmand ishchilarning qatlami edi. Vaqtli hukumat ularning ta'siridan malakasiz ishchilarni chetlatishga qaror qilgan. Iqtisodiy inqirozni chuqurlashtirish va hunarmand ishchilar o'rtasida ishsizlikning o'sishiga qarab ishchilar o'zlari "Milliy ustaxonalarda" ishlagan va "Ijtimoiy respublika" uchun ishchilarni birlashtirgan.

Fevral davrida ishchi sinfni va mayda burjuaziyani ajratishga harakatlar qilindi. Bu sinflar o'rtasida fevral ittifoqining buzilishida yirik kapital va yirik yer egaligi munosabatida Vaqtli hukumatning kapitulyatsiya siyosati katta ro'l o'ynadi. Vaqtli hukumatning burjuaziya a'zolari ijtimoiy sohada ishchilarga berilgan va'dalarni ko'rib chiqqan. Lekin mayda burjuaziya va dehqonchilik munosabatida burjua respublikachilar aniq ijtimoiy – iqtisodiy dasturga ega emas edi.

Burjua respublikachilar Iyul monarxiasining an'anaviy iqtisodiy va moliya-soliq tizimiga hech narsani qarshi qo'yolmadi. Inqilobning rivojlanishi Vaqtli hukumatni bu masalalar bilan yuzma –yuz qo'ydi. Fevral inqilobi ishchi sinfning

---

<sup>23</sup> А.Н.Карамзин. Письмо А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 г. М., 1935. Стр 37.

inqilobiy intilishlari oldidagi qo'rquvni uyg'otgan, bank, birja va pul sarosimasini qo'zg'agan.

A.N.Karamzinning aytishicha, “Inqilob inqirozi savdo inqirozini kuchaytirdi”. Bu sarosima burjua kreditiga, barcha ishlab chiqarish va muomalaga ta'sir etmasdan qolmadi. Lill fabrikantlari Tussen, Shartrio, Dyutua 1848-yil mart oyida o'z ishchilarining yarmini ishdan bo'shatdi, Ruanda tadbirkorlar Vaqtli hukumat komissari tomonidan o'rnatilgan ish haqining yangi stavkalariga qarshi bir belgi sifatida korxonalarini yopgan yoki ularni qisqartirilgan haftaga ko'chirishgan.

Iqtisodiy inqirozni chuqurlashtirish natijasida davlat moliyasi butunlay buzildi. Omonatchilar o'z jamg'armalarini bankdan, omonat kassalaridan qaytarib olishgan, ko'plab banklar bankrotga uchrigan. Barcha holatlar Vaqtli hukumatga Iyul monarxiyasidan respublikaga meros bo'lib qolgan bank va soliq tizimi munosabatida inqilobli tadbirlarni amalga oshirishga imkon bergan.

Bu choralardan xavfsiragan ba'zi moliyachilar hukumatga davlat zayomlari bo'yicha foizlarni to'lashni to'xtatishni maslaxat qilgan va Parijlik boy kapitalchilarni yangi zayomga “Ixtiyoriy” a'zo bo'lishga majbur qilgan. Lekin vaqtli hukumat va uning moliya vazirlari – banker Gudsho va Garne-Pajes yirik mulkdorlar va bankirlar kapitaliga bo'lgan har qanday tajovuzni rad etgan.<sup>24</sup> Davlat zayomlari egalarini tinchlantirish uchun hukumat ularga navbatdagi foizlarni muddatidan oldin to'lagan. Fransiya banki banknotlari qabul qilishga majburiy deb e'lon qilingan. Xususi provinsia banklari Fransiya bankiga bo'ysungan va uning bo'limlariga ajratilgan, bu esa kichik burjuaziyaning moliyaviy aristakratiyaga muteligini kuchaytirgan.

Fransiya bankidan ssuda olish uchun hukumat unga davlat o'rmonlarini garovga bergan. Shunga qaramasdan hukumat burjuaziya kutilgan moliyaviy yordamni olmagan. Chiqarilgan yangi “milliy” 5% li davlat zayomi barbod bo'ldi. Faqat mehnatkashlar Vaqtli hukumatga o'zlarining 1mln frank summadagi ixtiyoriy hadyalarini taqdim etishgan. Vaqtli hukumat maqsadlarining

---

<sup>24</sup> .П.В.Анненков. Парижские письма. М., 1983. Стр 168.

haqiqiyligiga ishonib Parij ishchilari va'da qilingan ijtimoiy masalaning yechimini uch oy ichida hal qilishni sabr bilan, ochlikka tayyorligi bilan kutgan.

Yangi 45 santimli soliq millionlab mayda va parselli dehqonlarning yelkasiga o'z og'irligi bilan tushgan. Inqilob pomeschiklar, yer egaligi burjuaziyasi rostovshiklarga qarshi kurashda dehqonlarning yangi faolligini bog'ladi. Fevral kunlaridan boshlab bu harakatlar bilan markaziy, sharqiy, g'arbiy va janubiy Fransiyaning departamentlarida mayda dehqonchilik va boshqa tumanlarni qamrab olgan edi.

“Yashasin ozodlik, yashasin respublika!” hayqiriqlari bilan o'rmonli tumanlarning dehqonlari davlat va pomeschiklarning o'rmonlaridan foydalanish huquqlarini tiklashgan. Elzasda, Yuqori Garonnada va Yuqori Pireneylarda fevral inqilobidan keyin tezda dehqonlar jakeriyasi avj oldi. Yirik pomeschiklar va burjua dehqonchiligi tumanlarida dehqonlar yer uchun juda baland ijara to'lovlarini to'lashdan bosh tortgan. Yangi 45 santimli soliq dehqonchilikda respublikaga bo'lgan nafratni uyg'otdi, bu esa ularning ahvolini yomonlashtirdi.

Yirik yer egalari, monarxistlar va klerikallar dehqonlarning noroziligi va e'tirozlaridan foydalangan. Katolik peshvolari yordamida ular dehqonlarni Parij demakratiyasiga va ishchi sinfni zaharlagan, ularni qishloq aholisi hisobidan “Parij ishsizlari” ni ta'minlash uchun 45 santimli soliqni kiritishda hukumatni majburlagan deb tuxmatga qo'ygan. Haqiqatda esa Parij inqilob ishchilari va demakratlar dehqonlarga bo'lgan 45 santimli soliqqa qarshi chiqishgan. Bu soliqqa nisbatan Blankining Markaziy respublika jamiyati katta g'ulg'ula solgan. Oqibatda Blanki shunday eslaydi: “Bu tadbirni biz respublikaga o'lim hukmi deb hisoblaymiz”.<sup>25</sup>

Uning klubi yirik yer egalari – dvaryanlar tomonidan 1825-yilning “emmigrant milliardini” qaytarish haqidagi talabni ilgari surgan rezolyutsiyani qabul qilgan. Bu e'tiroz va takliflar nafaqat Vaqtli hukumatning ko'pchiligini, balki burjuaziya qo'lida o'yinchoq hisoblanmish Ledryu-Rollen, Lui Blan, Flakon va Alberlarning qarshi harakatiga uchradi. Hukumat majlisida ular 45 santimli

---

<sup>25</sup> А.И.Герцен. Письма из Франции и Италии. М., 1950. Стр 27.

soliq haqidagi qonun loyihaga qarshi chiqishgan, lekin keyin o'z obro'lari bilan Vaqtli hukumatning soliq siyosatining kontrrevolyutsiyasi xarakterini yashirgan. Mayda burjuaziya demakratlari va sotsialistlarga xos bo'lgan sinfiy kurashga bo'lgannafrat yana nomoyon bo'ldi. Bu Ledryu-Rollen va Lui Blanning Vaqtli hukumatning o'ng ko'pchiligining siyosatiga qarshilik ko'rsatish urinishlarini zaiflashtirdi. Shu orada mayda burjua demakratiyaning ikkala sardori kechagi monarxistlarning va o'ng respublikachilarning siyosiy kursi oqibatlarida o'zlariga hisobot berishdi.

Ledryu-Rollenning g'ulg'ulasi ta'sis majlisiga saylovlarni tayyorlash va yangi respublika tartibini joriy etish uchun provinsiyaga yuborilgan Vaqtli hukumat komissarlariga bo'lgan mart selkulyarlariga aniq ko'rsatilgan.<sup>26</sup>Ledryu- Rollen komissarlarga “yakobincha” g'oyalarni bu sirkulyariylarda bayon etgan. Komissarlarga qoidalarga rahbarlik qilish taklif qilingan: hamma joyda yangi, imkon qadar xalqdan chiqqan odamlar; komissarlarga har bir okrug , har bir munitsipolitet odamlarni qo'yish topshirig'I berilgan. Bu qoidalarga muvofiq Ledryu-Rollen o'z “komissarlarini”to'plagan. Ular mayda burjua respublikachi arboblardan, inqilob Klubi va Klublar klubi faollaridan tashkil topgan edi, lekin ularning qatoriga qat'iyatli so'l respublikachilar, undan tashqari inqilobiy sotsiolistlar va kommunistlar yaqinlashtirilmagan.

Bundan “xalqning revolyutsion daholari” provinsial ma'muriyat ishlarida o'zining rahbarlik ta'sirini yo'qotmagan. Burjuaziya pomeschiklar provinsiyaning siyosiy qoloqligini hisobga olib Vaqtli hukumatni Ta'sis majlisiga saylovlarni o'tkazish uchun har tomonlama shoshtirgan. Vaqtli hukumat Lui Blan va Ledryu-Rollen e'tirozlariga qaramasdan Ta'sis majlisiga saylovlarni 9-aprelga tayinlagan. Aksincha, Parij demakratiyasi, inqilobiy klublar va demakratik matbuot xalqning siyosiy maorifi uchun saylovlarni uzaytirishni so'ragan. Blanki klubi birinchilardan bo'lib saylovlarni uzaytirish uchun kompaniyani tashkil etdi.

---

<sup>26</sup>.А.И.Герцен.Былое и думы.М., 1973.Стр 135.

Markaziy respublika jamiyatining Vaqtli hukumatga bo'lgan 6-mart va 14-martdagi ikkita petitsiyalarida Blanki nafaqat saylovni uzaytirishni, balki qishloq aholisini o'qitish haqida talab qilgan. "Xalq haqiqatni bilmaydi, ular buni bilishlari kerak. Bu bir kunlik yoki bir oylik ish emas ...

Yorug'lik hamma joyga birdek yetsin, qullikdan ezilgan mehnatkashlar qadrlarini roslasin, ozodlik havosidan nafas olsin".<sup>27</sup> Aniq bo'lishicha, Ta'sis majlisiga saylovlar muddati atrofidagi kurashning boshlanishi hukumat qoshida emas, balki ishchi sinf bosimi ostida Parij ko'chalarida hal bo'lgan. Undan tashqari, mayda burjuaziya demakratiyasi sardorlari omma kurashiga tayanishni istamadi, ularning barcha hisob kitoblari ishchilarning inqilobiy kuchlari oldidagi qo'rquvi bilan to'xtab qoldi.

17-martda Parijda sodir bo'lgan Ta'sis majlisiga saylovlarni uzaytirishni talab qilgan. 100 minglik xalq namoyishi bunga yorqin misol bo'la oladi. Parijda antikommunistik va ishchilarga qarshi ko'cha namoyishlari boshlanib ketdi. O'zining yutug'ini qo'llab Vaqtli hukumat 20 aprelda birdamlik bayrami ko'rinishida poytaxtda harbiy monifestlarni tashkil etdi, unda milliy gvardiya bilan birgalikda Parijga kiritilgan qo'shinlar ishtirok etgan. Provinsiyada qoloq dehqonlar ommasining ovozi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Parijda va yirik shaharlarda inqilob demakratiyasining mag'lubiyati shubhasiz edi.

Parijda Ta'sis majlisiga saylovlarda Lyuksemburg ishchi delegatlari tomonidan ilgari surilgan demokratik klublar ro'yxati raqobatlashgan. Birinchi ro'yxatning 34 ta nomzodlaridan 6 kishi saylandi, ularning ichida Vaqtli hukumatning 4 ta a'zosi – Lui Blan, Flokon, Ledryu – Rollen va Alberlar edi. Ikkinchi ro'yxatning 23 ta nomzodlaridan 3 kishi saylangan. Mashxur inqilobchi arboblardan kommunistlar – Blanki, Dezami, Kabe, Raspayl, Savari va boshqalar Ta'sis majlisiga deputatlikka o'tmadi.

Mamlakatda Ta'sis majlisning 880 o'rnidan 500 o'rnini olgan burjuaziya respublikachilari g'alaba qo'zongan. 80 ga yaqin saylangan deputatlar mayda

---

<sup>27</sup> П.В.Анненков. Парижские письма. М., 1983. Стр 172.

burjuaziya demakratlarga tegishli edi. Bir qator sanoat markazlarida bu siyosiy tafovutlarga va ijtimoiy kelishmovchiliklarga olib keldi. Ayniqsa jiddiy xarakterga Limoj va Ruandagi voqealar misol bo'la olar edi, u yerda mehnat va kapital kelishmovchiliklari kuchli avj oldi. Limoj ishchilari saylov protokollarini yo'q qilishni talab qilishdi. Ikki hafta davomida shaharni ishchi va demakratlardan shakllangan qo'mita boshqardi. Ruanda fevral inqilobining keyingi birinchi ochiq qurolli kurash holati sodir bo'ldi. Ruan ishchilari o'z nomzodlarining mag'lubiyati va Ta'sis majlisiga ba'zi fabrikantlarning – ruanlik ishchilarni ekspluatatorlarning saylanishidan g'azablanib qo'zg'alon ko'tarishdi. Unda 100 ga yaqin ishchilar, ularning xotinlari va bolalari o'ldirildi va yarador bo'ldi.

### **1.3 1848-yil inqilobi A.I. Gersen talqinida.**

1848-1849 yillardagi Yevropaning ko'p mamlakatlarini inqilob qamrab oldi. Burjua inqiloblari Fransiyada, Germaniyada, Avstriya imperiyasida, Italiyada yuz berdi. Bu inqiloblarning tub sababi bitta kapitalizmning sust rivojlanganligi edi. 1848-yilda mazkur mamlakatlarning hammasida inqilobiy vaziyat yuzaga keldi. 1847-yilgi qahatchilik va iqtisodiy inqiroz xalq ommasi ahvolining yomonlashuviga sabab bo'ldi. Xalq g'alayonlari dahshatli tusga kirdi. Ekspluatator sinflar ichida kelishmovchiliklar yuzaga keldi. "Yuqori tabaqalar" endi eskicha idora qilinmas edilar. Lekin mazkur mamlakatlardan har biridagi vaziyat turlicha edi va ulardagi inqiloblar o'z vazifalari bilan bir-biridan farq qilardi va o'z xususiyatlariga ega edi.

XVIII asrdagi fransuz inqilobi yillarida asosiy vazifa – feodal monarxiyasini ag'darib tashlashdan, feodalizmga qarshi kurashishdan iborat edi.

1848-yilda Fransiyada feodalizm to'liq bo'lmasada, ma'lum darajada jamiyatning ayrim sohalarida ko'zga tashlanar edi. Qirol Lui Filipp davrida siyosiy hokimiyat faqat burjuaziyaning yuqori tabaqasi qo'lida edi.<sup>28</sup> Kapitalizm rivojlangan sari sanoat buruaziyasi boyib bordi. Lekin Fransiyada burjuaziyaning keng qatlamlari xatto saylovhuquqlariga ham ega emas edilar. Siyosiy jihatdan huquqsiz bo'lgan ishchilar sinfining ahvoli ham nihoyatda og'ir edi.

Fransiyada 1848-yilgi inqilob burjua keng qatlamlarining o'z siyosiy huquqsizligidan noroziligi va ishchilar sinfining kapitalistik ekspluatatsiyaga qarshi kurashi natijasida yuzaga kelgan edi.

Kartoshka kasalligi orqasida paydo bo'lgan ocharchilik munosabati bilan Fransiyada xalq ommasining ahvoli keskin yomonlashdi. Kartoshka kasalligi 1845-1847 yillardan buyon butun Yevropaga tarqalgan edi. Kartoshka esa kambag'allarning asosiy ozyqasi edi. 1847-yilda navbatdagi iqtisodiy kirizis boshlanib bir qanchi kapitalistik mamlakatlarni qamrab oldi. Fransiyada sanoat ishlab chiqarishi 50% ga qisqardi. Ommaviy ishsizlik boshlandi.

---

<sup>28</sup> А.И.Герцен. Писма из Франции и Италии. М., 1950. Стр 41.

Burjuaziya saylov reformasi o'tkazishni qattiq turib talab qildi. Ko'p kishilik banket-majlis tashkil qilinib, ularda qadah ko'tarish bahonisi bilan siyosiy nutqlar so'zlandi. Ishchilar islohat talabini qat'iyat bilan qo'llab-quvvatladilar.

Hukumat poraxo'rlik, har-xil firibgarlik botqog'iga botib ketdi va yirik burjuaziyaning bir qismi oldida ham o'z obro'yini yo'qotib qo'ydi.

Fransiyada 1848-yilning boshlarida inqilobiy vaziyat vujudga keladi. Bu voqealar kundan-kun ommaviylashib, tezlik bilan avj olib ketdi. Islohat talab qilib chiqadigan katta majlis 1848-yil 22-fevralga kelib tayinlangan edi. Eng oxirgi paytda hukumat majlisni taqiqladi. Lekin baribir tayinlangan kun omma ko'chaga chiqdi. "Yashasin islohat" degan xitoblar eshitildi.<sup>29</sup>

23-fevralda qo'shinlar qurolsiz olomoni o'qqa tutdi. 50 dan ortiq kishi o'ldi. Shundan keyin butun mehnatkash parij xalqi kurashga otladi. 1500 dan ortiq barrikada tiklandi. 1848-yil fevralida barrikadalarda jang qilgan jangchilarning asosiy ommasi ishchilar va hunarmandlardan iborat edi. Biroq burjuaziya ishchilarga nisbatan yaxshiroq uyushgan edi. Shuning uchun ham ular o'zlarining hukumatlarini tuzdi.

Xalq ommasining talabi bilan muvaqqat hukumatga 1834-yil Lion qo'zg'alonging ishtirokchisi ishchi Alber hamda jurnalist va tarixchi Lui Blan ham kiritildi. Bular ishchilarning yirik namoyandalari hisoblanar edi. Lui Blan utopik sotsialist bo'lib, ishchilar bilan burjuaziya o'rtasida totuvlik bo'lishni talab qilar edi. Inqilob davomida u ishchilar ishiga xiyonat qildi.

Mehnatni uyushtirish ishida burjuaziya ishchilariga yordam bera oladigandek, unga ishonar va boshqalarni boshqalarni ham shunga ishontirishga urinar edi. Mehnatni uyushtirish " degan bu noaniq atama " sotsalistik intilishlarni ifoda etish kerak edi". Ammo Leninning fikrini hayot tasdiqlamadi.

Lui Blan burjua kontr revolyutsionerlariga qarshi inqilobiy ishchilar bilan birlashib " bir safda turib kurashish" to'g'risida ko'p vadalar bergan edi. Ayni

---

<sup>29</sup> А.И.Герцен. Писма из Франции и Италии. М., 1950. Стр 46.

vaqtda birorta tarixchi ham Lui Blanning burjuaziyaga qattiq ishonganini etirof etgan emas.

A.I.Gersening fikricha, 25-fevralda g'oyatda katta ishchilar namoyishi talabi bilan Fransiya respublika deb elon qilindi. Respublikani ishchilar o'zlarining mashaqqatli urushlar va qonli to'qnashuvlar asosida qo'lga kiritgan edilar. U bu respulikani 1848-yildan to 1851 yilgacha yashab turgan ikkinchi respublika deb nomlanganligini ta'kidlab o'tadi.<sup>30</sup>

Fransiya ilg'or ishchilari 1848-yilda "sotsial respublika" ya'ni har bir kimsaning mehnat huquqi etirof qilingan, ishsizlik, muhtojlik bo'lmagan respublika talab qildilar.

Biz bilamizki ishsizlik kapitalizmning yo'ldoshidir, hozirga qadar ham kapitalistik mamlakatlarda ko'plab ishsizlik holatlarini kuzatish mumkun. Fransiya ishchilari 1848-yilda buni hali etarli darajada tushunmagan edilar. Ularning ongida hali xususiy mulkchilikni yo'q qilmasdan turib ham mehnat huquqini qo'lga kiritish mumkin ekanligini oylab ko'rmagan edilar.

Jasur va matonatli inqilobchi Ogyust Blank ishchilarning xom xayollarini tanqid qildi. Ularni burjuaziyaga va muvaqqat hukumatga ishonmasliklarini ta'kidlab o'tdi.

Burjuaziya ishchilarda ular inqilobning dastlabki kunlarida erishgan narsalarni tortib olishga intildilar. Hukumat ishchilarni juda katta qirgin qilishga qaror qildi. U milliy ustaxonalarni tarqatib yuborish haqida qonun chiqardi. Mehnat huquqi haqidagi vadalar paymon qilindi. 113 ming kishi ishdan mahrum qilinib, ko'chaga aylandi. Bunga javoban 23-iyunda umumiy qo'zg'alon boshlandi. Bu qo'zg'alon Lion to'qimachilarining qo'zg'alonidan ancha kuchli va shiddatli edi. Ana shunday mamlakatdagi siyosiy vaziyatlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan Aleksandr Gersen bu voqealarni quyidagicha etirof etgan:

Yigirma uchinchi kuni soat to'rtlarda, tushki ovqat oldidan Sena daryosi bo'yida daryo bo'ylab borayotgan edim do'konlar yopilmoqda, yuzlaridan dahshat

---

<sup>30</sup> А.И.Герцен. Писма из Франции и Италии. М., 1950. Стр 48.

yogilayotgan milliy gvardiya saldatlari saf-saf bo'lib har tomonga ketmoqda , osmonni qora bulut qopladi , yomg'ir yog'a boshladi.

Bulutlar orasidan qattiq yashin qopladi. Ustma-ust bir necha marta mamaqaldiroq guldiradi, shu guldiros oldidan ibodatxona qo'ng'iroq xonasidan bir maromda jaranglab bong sadosi eshitilardi. Yana bir marta aldangan ishchilar bong urib birodarlarini qo'lga qurol olib chiqishga chaqirdilar<sup>31</sup>.

Daryoning ikkinchi tomonidan hamma tor ko'chalarda barrikadalar qurilmoqda edi. Tosh tashiyotgan yuzlab insonlarning ahvoliga o'z ko'zlarim bilan guvoh bo'ldim. Bolalar, ayollar ularga yordam berar edilar. Odamlarning urushga chaqiriqlari va ularning shovqinli harakatlari ochiq oydin eshitilib turar edilar.

Favqulodda tezlik bilan 600 ga yaqin barrikada qurildi. Qo'zg'alon boshlandi, lekin ularda yagona qo'mondonlik, umumiy rahbarlik yo'q edi. Ishchilarning ko'p rahbarlari qamoqda edi. Lui Blan ishchilarga nisbatan nasixat qilib qo'zg'alonni to'zlatishni aytdi, o'zi esa qo'zg'alonchilarning dushmanlari tomonida turdi va ishchilarga xiyonat qildi, qo'zg'alonchilarning boshqa shaharlardan ishchilar bilan aloqasi yoq edi. Qo'zg'alon mag'lubiyatga uchradi.

Kuchli artilleriya otishmasi Parijda ishchilarning kvartallarini shavqatsiz yakson qilib, isyonchilarni o't ochib turgan uylarini vayron qilib tashladi. Ishchilar qattiq qarshilik ko'rsatib, shahar chetiga chekinishga majbur bo'ldilar, 26-iyulda qo'zg'alon bostirildi.

Isyonchilardan qonli o'ch olish janglar davomidayoq boshlangan edi. Qo'zg'alon bostirilgandan keyin barrikada jangchilarni ommaviy otish kuchli jazolash boshlandi. Aleksandr Gersen burjuaziya ishchilardan juda qo'rqib, ularni iloji boricha butunlay tor-mor qilishga urunganliklarini ta'kidlab ham o'tadi.

A. Gersen bunday deb xotirlaydi: “ 26-iyun kechqurun biz... to'xtab-to'xtab otilgan miltiq tovushlarini eshitdik...”

Hammaniz bir-birimizga qarab qoldik, hammaning yuzi ko'karib ketgan edi. “ Otib tashlayaptilak-ku !—dedik biz bir ovozdan va bir-birimizdan yuzimizni

---

<sup>31</sup> А.И.Герцен.Былое и думы.М., 1973. Стр 138.

o'girdik. Bunday daqiqalar evaziga o'n yil nafrat bilan qaraydilar, umr bo'yi qasos oladilar.”<sup>32</sup>

1848-yil iyunda Fransiyadagi inqilob jarayonida ishchilar bilan burjuaziya o'rtasida birinchi buyuk fuqarolar urushi boshlanib ketdi. Ishchilarning yetarli darajada uyushmaganligi va ongli bo'lmaganligi, boshqa shahardagi ishchilarning qo'llab-quvvatlamagani va dehqonlar bilan ygina ittifoqning yo'qligi mag'lubiyatning asosiy sabablari bo'ldi.

Lekin inqilob tajribasi proletariat bilan burjuaziya o'rtasida sinfiy kurash muqarrarligi inqilob jarayonida ham namoyon bo'lib bordi.

Garchi 1848-1849-yillardagi xalq ommasi mag'lubiyatga uchrasada, bu tajriba ishchilar sinfining undan keyingi inqilobiy kurashlar uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

A.I.Gersen, P.V.Annenkovga 1848-yil 5-martda Rimda yozgan xatida shuni aytib o'tganki, - “Inqiloblar mening ilonlarimni emas, balki Yevropaning ko'rinishini ham o'zgartirayapti, mana men ham aprel oyida Neapolga va Palermoga sayoxat qilmoqchiman, u yerdan Marselga jo'namoqchiman!”<sup>33</sup>

Parij yangiliklarini bu yerda qizg'in kutib olishayapdi, kecha “AROOOL” teatrida namoyish bo'ldi. “YASHASIN OZOD FRANSIYA ”, “YASHASIN PARIJ”, “YASHASIN YANGI FRANSUZ HUKUMATI ”! ”

A.I. Gersen juda ko'p do'stlari bilan xat yozishib turib bo'layotgan voqealarni tahlil qilardi. Uning Moskvalik do'stlariga 1848-yil 2-avgustda yozgan maktubida shunday deb yozadi- do'stlarim qanchalik sizlarni sog'inganimni bilsalaring edi, o'tirib o'ylay tabiatimizni, qishloqlarimizni, dehqonlarimizni eslab hamma narsani tashlab sizlar tomon ketgim keladi. Men Rossiyani va rus xalqini sevaman, uning qandaydir xususiyatlarini men fransuz ishchisida ko'rdim . Bu

---

<sup>32</sup> А.И.Герцен.Былое и думы.М., 1973. Стр 146.

<sup>33</sup> А.И.Герцен. Писма из Франции и Италии. М., 1950.Стр 148.

ikki xalqni – kelajak xalqi desam adashmagan bo'laman, va uning uchun Parijdan ketgim kelmaydi. Xuddi shu odamlarni otib tashlashdi.<sup>34</sup>

24-fevral inqilobi COIR DE MAIN: bo'lib qoldi. Jurnalistlar taxtga o'tirmoqchi edilar. Vasiliy Andreyevich Lamartin va Andrey Aleksandrevich Marrastlar shular jumlasiga kirar edilar. Ular xalqdan taxtni o'g'irlab, burjualar butun hokimiyatni egallab olib, respublikani o'ldirdilar.

Lamartin qizil bayroqni rad etganda u o'zining qalbini burjuaga sotgan edi. Yosh respublika 17 yil L.Filipni eslatib necha xalqni qoni ustida olib o'tgan soldat qo'lidagi uch xil rang bayroq to'g'ri keladimi? 26-fevral kuni respublika orqaga ketdi. May boshida xalq o'zini yovvoyi hayvondek his qilib qarshilik ko'rsatdi. Yuz ming odam Oliy Majlisni o'rab oldi. Oily Majlis ichida 5 ta sotqin va 800 ta ahmoqlar Fransiyani zanjirband qilib, to'g'ri gapira olmas edilar.

Nima uchun xalq g'alaba qozana olmadi? – degan savol tug'iladi. Buning sababi shundaki, harakat boshliqlarining yarmisi o'zini omon qoldirish uchun xiyonat qilar edilar. 15-may kuni inqilobga sodiqlaridan yarmisi qamoqda, yarmisi qochib ketgan edilar.

Birinchi kunda qizil bayroq hamma yerda yoyilgan edi. Shu mahal Lamartin burjualardan ajralib qolmasligi uchun ularning ranglarini olib chiqdi va uch xil rangli bayroq qizil bayroqni siqib chiqardi. Umuman olganda A.I.Gersen 2-respublika tarixini qiyosiy – tahliliy jihatlar asosida amalga oshirib bordi.

Shu o'rinda A.I.Gersen 1848-yil inqilobiy jarayonlarda va respublikaning dastlabki faoliyatlarida ayrim arboblarning ishtirokini ham keltirib o'tadi. Bular jumlasiga Lui Napoleon Bonapart, Ledryu-Rollen, Lui Even Kavenyak, Alber kabilarning faoliyati nazarda tutilgan.

Jumladan Ledryu – Rollen 1848-yil inqilobi voqealarida bevosita ishtirok etgan, yirik burjuaziyaning ishonchli vakili hamda mamlakatda namoyishchilarga qarshi kurashdagi nutqlari bilan ajralib turgan shaxslardan edi. Gersening ma'lumotiga ko'ra, 2-respublika davrida vaqtli hukumatni boshqargan. Aynan shu lavozimdaligi davrida Ledryu-Rollen Lui Napoleon Banoport va uning guruhini

---

<sup>34</sup> А.И.Герцен. Писма из Франции и Италии. М., 1950. Стр 25.

ko'p marotaba tanqid ostiga oladi. Ammo Lui Napoleon Banoport uning har qanday siyosiy tashviqot ishlariga o'z vaqtida javob bera olgan.

Fransiyadagi voqealarda yana bir shaxs Lui Even Kavenyak (1802-1857) bo'lib, fransuz generali va siyosiy arbobi, mo'tadil respublikachi sifatida nom qozongan edi<sup>35</sup>. U asosan mamlakatdagi va mustamlakalardagi qo'zg'olonlarni bostirish ishining yetakchi arboblaridan bo'lgan. 1848-yil fevral inqilobidan so'ng, Jazoir general-gubernatori, 1848-yil may oyidan boshlab Fransiyaning harbiy ministri. Parij ishchilarining iyun qo'zg'olonini bostirishda rahbarlik qilgan edi. Qo'zg'olon bostirilgach, u Lomartin o'rniga hokimiyatda yetakchi o'rinni egalladi.

Shu holatda asta sekin barcha davlat lavozimlari: vazirliklar, politsiya, pochta tizimi va boshqa shu kabi lavozimlar Kavenyak boshchiligidagi ofitserlar qo'liga o'tdi. Gersenning ta'kidlashicha, Kavenyakning hukmronligi uzoq davom etmadi. 1848-yil 4-sentabrdagi Ta'sis majlisi respublika konstitutsiyasini ishlab chiqdi, bu ish 23-oktabrga borib tugatilgach, qonuniy asosda o'tkazilgan saylovlarda Kavenyak mag'lubiyatga uchrab, hokimiyatdan ketdi.

Gersen yana bir shaxs Lui Napoleon Banoport haqida ham ayrim mulohazalarni yuritadi. Ya'ni uning yangi respublikaning prezidenti bo'lib, ijtimoiy sinflarning manfaatlarini uyg'unlashtira olganligini tahlil qilib beradi va prezidentlikka saylanishi:

- a) Ishchilar uchun Kavenyakning ketishi, burjuaziya respublikachilarning ketishi, iyun voqealariga munosabat;
- b) Mayda burjuaziya uchun qarzdorliklaridan kechilishi va yirik sanoatchilar bilan huquqiy tengliklarini ta'minlash;
- c) Yirik burjuaziya uchun Kavenyakning o'rniga Napoleonning kelishi, respublikaning o'rniga monarxiyaning o'rnatilishini bildirdi;

---

<sup>35</sup> А.И.Герцен. Писма из Франции и Италии. М., 1950. Стр 27.

d) Armiya uchun esa Napoleonning prezident bo'lishi bekorchilikdan qutilish edi. Chunki Napoleon tog'asidan ba'zi masalalarni "musht" bilan yechish usullarini o'rgangan edi.

A.I.Gersen 1848-yilda Fransiyadagi voqealarni sinchikovlik bilan organganligini keying davr rus tarixshunosligi ham tasdiqlaydi. Ya'ni N.Zactenker o'zining "Революция 1848 года во Франции" номли asarida quyidagicha ma'lumot bergan: "Gersen 2-respublika davri voqealarining asosiy harakatlantiruvchi kuchi, hukmron sinf tomonidan yuritilgan siyosiy o'yinlarni, mamlakatning asosiy mehnatkash qismi bo'lgan ishchilar va hunarmand-dehqonlar ahvolini yorita olganligi bilan ajralib turadi"<sup>36</sup>.

Yuqoridagi ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, 1848-yil inqilobining rus manbalarida yoritilishi ancha qiyin kechgan, sababi inqilobning vujudga kelish shart-sharoiti, inqilobiy vaziyatlarda xalq ommasining ishtiroki, xalq tomonidan hukumat organlariga qo'yilgan talablarning mazmun-mohiyatini yorita olishi mafkuraviy jarayonlar bilan chirmashib ketganligi edi. Ammo shuni aytish kerakki, Fransiyadagi 1848-yil fevral voqealarini o'rganishda A.I.Gersenning mulohazalari o'zgacha hisoblanadi. Uning inqilobiy vaziyatlarni baholay olish darajasi va voqealarga teran fikr bildirishi bizni ancha qiziqtiradi. Shu o'rinda P.V.Annenkov va A.N.Karamzinlarning ham mulohazalarida e'tirozli jihatlar uchramaydi. Ular inqilobning kelib chiqishi va uning amalga oshirilishi haqida yagona fikrda bo'lib, Fransiyada 1848-yil 25-fevralda Respublikaning e'lon qilinishi va Prezidentlik boshqaruvining o'rnatilishini o'rinli ta'kidlab o'tgan.

---

<sup>36</sup> Н.Застенкер. Революция 1848 года во Франции. М., 1948 г. Стр 134.

## **II Bob. Fransiya 2-respublika (1848-1851) tarixi rus manbalari va zamondoshlar nigohida.**

### **2.1 Burjua respublikasining ta'sis etilishi – P.V.Annenkov va N.Karamzinlar qarashlarida.**

1848-yil 4-maydagi Ta'sis majlisi o'z faoliyatini 24-fevralda e'lon qilingan respublika “Fransiyada boshqaruvning shakli hisoblanadi” degan tantanali deklaratsiyadan boshlagan. Lekin Ta'sis majlisi o'zining tarkibi va siyosiy kursi bo'yicha “fevral kunlarining davosiga qarshi jonli e'tirozi edi va inqilob natijalarini burjuaziya masshtabigacha yetkazish kerak edi”.

Bu kursni hayotga tadbiiq etib Ta'sis majlisi Vaqtlil hukumat o'rniga yangi oliy hukumat organi-“Ijrochi komissiyani” tuzdi. Unga sotsialistlar kirmadi va qiyinchilik bilan Ledryu-Rollen o'tdi, Ijrochi komissiya tomonidan tasdiqlangan yangi vazirlar burjua-respublikachi lagerning o'ng reaksiion elementlariga tegishli edi.

Harbiy vazir etib fransuz istilochilariga qarshi aljir qabilasining kurashini tormor qilgan “Afrika generallaridan ” biri Kavinyak tayinlangan. Ta'sis majlisining barcha asosiy komissiyalarida orleanchilar va legitimistlar ko'rsatilgan va ularning sardorlari hukumat siyosatiga bosimni kushaytirgan. Mehnatkash ommaning ta'siridan o'zini chetlatib Ta'sis majlisi majlislar zalida petitsiyalar va talablar bilan ishtirok etishni man qiluvchi qarorni qabul qildi. Ta'sis majlisi raisi ixtiyorida Fransiyaning barcha qurolli kuchlari edi.Reaksiyani mustahkamlashning bu vaziyatida yangi ommaviy namoyish haqidagi fikr yuzaga keldi.Demokratik kuchlarning asosiy e'tiborini jalb qilgan masala unga sabab bo'ldi.

Azoblangan polyaklar qo'zg'aloni bilan qamrab olingan Polshaning Prussiya va Avstriya qismlaridagi fojeali voqealar Fransiyaning barcha ilg'or elementlarini o'ylantirib qo'ydi. Fransiya hukumati avvalgidek polyaklarning taqdiriga e'tibarsiz edi.<sup>37</sup> May oylarining boshlarida Galitsey va Poznanning Polsha milliy qo'mitalari Parijga Polsha milliy ozodlik ishiga yordam haqidagi fransuz xalqiga murojatini olib kelgan delegatsiyani jo'natdi. 15-mayda Ta'sis majlisida Polsha masalasi

---

<sup>37</sup> П.В.Анненков. Парижские письма. М., 1983. Стр 174.

muhokama bo'ldi. Demokratik Klublar vakillari 12-mayda va 15-mayda namoyishni o'tkazish haqidagi taklifni qabul qildi.

Blanki namoyishni shubhali deb hisobladi. Uning kulibining ko'pchilik a'zolari namoyishda ishtirok etishga majbur qilgandan keyin Blanki bunga rozi bo'ladi, lekin hamoyish tinch va quolsiz o'tishi sharti bilan edi. Barbes inqilobi Klubi ham namoyishga qarshi edi, biroq u ham bu namoyishda ishtirok etishga axt qilgan. 1848-yil 15-maydagi 150 minglik namoyish Burbon saroyiga bostirib kirdi va fransuz armiyasi tomonidan Polsha milliy harakatini qo'llab-quvvatlash haqidagi masalani tezlik bilan hal qilishni talab qilib, Ta'sis majlisining majlislar zalini to'ldiradi.

Lui Blanning, Ledryu-Rollenning va boshqalarning namoyishchilarni majlis zalini tark etishga kelgan harakatlari besamar edi. Yangi Vaqtli hukumatdagi demokratlar va sotsialistlarning nomlari zalda eshitila boshlandi. Bu vaqtda "Ijrochi komissiya" poytaxt garnizonining polklarini va milliy gvardiyaning burjua batolyonlarini oyoqqa ko'tardi.<sup>38</sup> Ularning mudofasi ostida Ta'sis majlisi ishni yangiladi va Ratushaga qarshi tazlik bilan ekspeditsiya tashkil etildi. Barbes va Alber yangi hukumatning a'zolari kabi qo'lga olindi. Keying kunlari esa Raspayl, Blanki va boshqa inqilob arboblari hibsga olindi va ularning klublari yopilgan edi. Lyuksemburg komissiyasi maxsus tugatilgan, qog'ozlari esa yo'q qilingan. 15-may voqealari burjua reaksiyasining qarshi hujumiga turtki berdi, lekin parijlik ishchilar o'zlarini mag'lubiyatga uchragan deb hisoblashmagan. 15-may namoyishida "milliy ustaxonalar"ning ishchilari faol ishtirok etishgan. 15-maydan keyin bu aloqalar va hamkorlik o'sa boshladi.

"Milliy ustaxonalar" ishsiz malakali ishchilar bilan va ish tashlahslar bilan to'lgan. 1848-yil may – iyunida Parijdagi ish tashlash harakati yuqori bo'lib qoldi.

Birlashgan ishchilar korporatsiyasi jamiyati o'z gazetasini chop etishga kirishdi, uning shiori shunday edi: "Assatsotsiyalar yordamida mehnatni tashkil etish. Odamning odam tomonidan ekspluatatsiya qilinishiga yakun yasash". Bu

---

<sup>38</sup> А.Н.Карамзин. Письмо А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 г. М., 1935. Стр 29

rasmiy organning adadi 1848-yilda 4 ming nusxani tashkil etgan. Bu gazeta sobiq Lyuksemburg delegatlari kabi Lyublan g'oyalari ostida qoldi. Mehnatkashlarni va demokratik kuchlarni birlashtirishga bo'lgan intilish haqida ishchilar va demokratik tashkilotlarning "xalq birodarlik banketi" loyihasi gapirgan.

Parij demokratiyasining kuchlarini ko'rib chiqish haqidagi fikr "Milliy ustaxonalar" delegatlaridan kelib chiqqan va korporatsiya ishchilari, demokratik matbuot o'zlashtirib olgan. Banket 14-iyunga tayinlangan. 4-iyulda Ta'sis majlisiga qo'shimcha saylovlar o'tkazildi. Saylangan burjua kandidatlar ichida faqat bittasi "Natsional" guruhiga tegishli edi, provinsiyada uchta saylov okruglariga g'alaba qozongan Tyer saylangan.

Parijda Ta'sis majlisiga bir vaqtning o'zida so'l demakratlar Kassider va Lagranj va mashhur sotsialistlar P.Leru va Prudonlar saylangan. Ularning mazkur vaziyatda saylanishi namoyishli xarakterga ega edi. Burjuaziya ilgari surgan "Milliy ustaxonalar"ni tarqatish talabi burjua-respublika va monarxik reaksiyani yanada ko'proq yaqinlashtirdi. Bu talab barcha reaksiyon kuchlarning birlashtiruvchi asosiy shioriga aylandi.<sup>39</sup>

"Milliy ustaxonalar" burjuaziyaning markazida qoldi, ular tadbirkorlarning ish tashlash harakatlari bilan kurashlarini murakkablashtirdi. Yengil sanoatning bir qator tarmoqlarida iqtisodiy inqirozning yengil kechishi sezila boshlandi. Ishchi sinfning inqilobli kuchining barbod bo'lishi bilan birgalikda 1848-yil respublikasi o'zining asosiy tayanchidan mahrum bo'ldi, undan keyin monarxiyaning tiklanishiga bo'lgan yo'l oldi. 22-iyunda "Ijroiya qo'mitasi" ning farmoyishi paydo bo'ldi, uning matni Ta'sis majlisi tomonidan maqullangan. 18 dan 25 yoshgacha bo'lgan "Milliy ustaxonalarda" band bo'lgan ishchilarga armiya safiga kirish taklif qilingan, boshqalari esa ishsiz qolish yoki botqoqli joylarda ishlashga rozi bo'lish yoki bo'lmaslikni tanlashi kerak edi.

Ishchilar tomonidan tortib olingan va "mehnat huquqi" ning tantanali e'lon qilinishi uchun "milliy ustaxonalar" ni jazolash butun Parij mehnatkashlarini

---

<sup>39</sup> А.Н.Карамзин. Письмо А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 г. М., 1935. Стр 30.

larzaga slogan. “Milliy ustaxonalar” brigadalarining Markaziy byuro a’zolari “milliy ustaxonalar” ishchilari nomidan hukumatga yozgan xatida shunday deyilgan: “o’z haq-huquqimiz yo’q ekan, hech qachon Parijni tashlab ketmaymiz”.<sup>40</sup>

Bir qator holatlarda qo’zg’alochilar “Ichrochi komissiyasi” a’zolarini, Vazirlarni va Ta’sis majlisi deputatlarini hibsga olishni va xalq tomonidan respublika kanstitutsiyasini ishlab chiqishni talab qilgan. Qo’zg’alochilarning asosiy tarkibini “milliy ustaxonalar” ishchilari, ko’p sonli ustaxonalarning quruvchi va hunarmand ishchilari tashkil etgan. Qo’galonchilarning sardori Parijning industrial ishchilarining ilg’or etakchi elementlari- mashinasozlar, temiryo’l ustaxonalari ishchilari poytaxt transport ustaxonalari edi. O’sha davrning turli tofadagi ishchilar bilan tuzilgan qo’zg’aloning o’zagi kurash davomida turli tabaqadagi mahalliy aholi bilan o’sib bordi.

Qo’zg’alochilar “milliy ustaxonalar”da ishlagan brigada va bo’linmalarda jang olib brogan, yoxud o’z karxonalari jamoasi tarkibida, milliy gvardiyaning o’z bo’linmalarida, mahalliy demokratik klublar yoki o’z kvartali aholisi tarkibidan iborat bo’lgan. Shuning uchun ko’proq “milliy ustaxonalar” ning brigada boshliqlari va delegatlari hamda milliy gvardiya qismlarining komandirlari qo’zg’alochilik otryadlari komandirlari va barrikada boshliqlari bo’lishgan. Barrikadalarni qurishda ishchi- mexanik Raxari boshqargan.

Qo’zg’aloning asosiy markazlaridan biri bo’lmish Parijning 7 okrugidagi kurashni “Organizatsion de travoy” sotsial gazetasi muharriri Delyakolonj boshqargan. Seant-Antuan, Sen-Deni, va Belvildagi joylarda kurash tashkilotchilari mahalliy klublarning rahbarlari va faollari o’z vaqtida barrikada kurashining tajribasini o’rgangan. Qo’zg’alochilar kuchining bo’linganligining asosiy sababi ishchilarning sinfiy tashkilotining yo’qligi edi. Parij ishchilarining inqilobiy daholari 15-maydan keyin qamoqda edilar, ularning klublari tarqatib

---

<sup>40</sup> А.Н.Карамзин. Письмо А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 г. М., 1935. Стр 31.

yuborildi. Barrkada jangchilari o'rtasida "demokratik va sotsial respublika hukumati" ning bo'lg'usi a'zolarining ro'yxati qo'ldan-qo'lga yurgan.

Inqilobiy ishchilar tashkilotini birlashtirgan ishchilar uyushmasi jamiyati ham o'rnini bosa olmadi. Uning ko'plab faollari, ayniqsa ishchi-mexaniklar uyushmasidan qo'zg'alonda faol ishtirok etdilar, lekin Lui Blan boshqaruvi qo'zg'alonga qo'shila olmadi va iyun kunlari jamiyat o'z faoliyatini tugatdi. Qo'zg'alonchi ishchilarning bundan zaifligiga qaramasdan u iyun kunlari Parijda mislsiz kuchni va mustahkamligini ko'rsatdi. Ommaviy qahramonlik va ko'plab harbiy taktik iqtidorlarni uning komandirlari va jangchilari namoyish etgan. Balandligi 3-4 qavatga etadigan 450 ta barrkadalar qurilgan jangning birinchi kunlari ya'ni 23 iyunda hukumat qo'shinlariga hech bir imtiyoz berilmadi. 24-iyun ertalab qo'zg'alonchilar yangi hujumga o'tishdi.<sup>41</sup>

Ular shahar Ratushasining binosini bosib olish xavfini solgan. Ta'sis majlisida hamma sarosimaga tushdi, Kavenyak Fransiyaning hamma burchagiga milliy gvardiyaning qo'shin va otryadlarini zudlik bilan jo'natish haqida telegraf jo'natdi. Lekin qo'zg'alonchilar o'z yutuqlarini mustahkamlay olmadi. Kurashning umumiy strategik rejasiga ega bo'lmay ular bosib olingan pozitsiyalar mudofasiga o'tdi vatashabbusni raqiblar qo'lga berdi. 24-iyun kechga kelib hukumat qo'shinlari qarshi hujumni boshlashdi va Senaning chap soxili kvartallarini tozaladi. 25-iyunda Kavenyak katta kuchga ega bo'ldi—40-50 ming qo'zg'alonchilarga qarshi 150 mingdan ortiq muntazam qo'shin va milliy gvardiya qatnashdi. Qo'zg'alonni bostirish uchun Kavenyak barrkadalar, uylar va butun kvartallarni shavqatsiz yo'q qilgan artilleriyadan keng foydalangan.

Sent-Antuan shaharchasi og'ir qurol yordamida qirg'inga keltirilgan. Artilleriyadan keyin hukumat kuchlarining hujumida asosiy ro'lni mobil gvardiyasining kallakesarlari o'ynagan. Qo'zg'alonchi ishchilarga qarshi burjuaziya 1848-yilda bo'xtonli targ'ibot qurolidan keng foydalandi. 26-iyun kechga kelib ishchilar qo'zg'aloni bosildi. Burjuaziyaning g'alabasi poytaxtning butun ishchi

---

<sup>41</sup> П.В.Анненков. Парижский писмо. М., 1983. Стр 176

aholiga qarshi terror bilan kuzatilgan. Ishchilar kvartallarida yarador va asir ishchilarni otib tashlash davom etgan.

Qo'zg'alon kunlari va undan keyin 11 mingdan ortiq kishi otib tashlandi. "Shubhali kishilar" hibsga olindi.<sup>42</sup> Parijda hibsga olingan soni 11 ming kishini tashkil qilgan. 27 iyunda Ta'sis majlisi qo'zg'alonda ishtirok etganlarga Fransiyaning dengiz orti koloniyalariga surgun qilinish haqidagi dekretni qabul qildi. Maxsus harbiy komissiyalar hibsga olinganlar ishini ko'rib chiqdi va surgun haqidagi masalani muhokama qilib chiqdi. Hatto bu komissiyalar ham har qanday isbotning yoqligi tufayli 6 mingdan ortiq qamalgalarni ozod qilishga majbur etdi. 4 ming kishi surgun qilingan. "Dohiy" deb tan olingan shaxslar harbiy tribunal sudlariga tegishli bo'lgan va uzoq qamoq jazosi tayinlangan.

1848-yil iyun qo'zg'alonining butun jahon tarixiy ahamiyati P.V. Annenkov tomonidan tavsiflangan, buni "ikkala sinf o'rtasidagi birinchi buyuk kurash. Bu burjuaziya tuzumini saqlash yoki yo'q qilish uchun kurash" deb atagan. 1848-yilning iyunida fransuz millati ikki millatga –ishchilar va mulkchilarga ajraldi. Karamzin aytganidek, "mulkchilik dini" Parij ishchilariga qarshi butun burjuaziya ommasini, yirik va mayda kapitalistlarni, tijoratchi va do'konchilarni, yirik yer egalari va dehqonlarni, xizmatchi va amaldorlarni birlashtirgan "birodarlik" bo'lgan.

Karamzinning ta'kidlashicha, Parij mayda burjuaziyasi hech kim bunday katta qiziqish bilan mulkini qutqarish uchun kurashmagan. 53 departamentdan Parijga milliy gvardiyachilardan ko'pchilli otryadlar yuborilgan. Provinsiya gvardiyachilari o'rtasida aholining barcha sinflari, shahar mayda burjuaziyasi, erkin kasbdagi shaxslar namoyish qilgan edi. 1848-yil inqilobi kapitalizmning rivojlanishi bilan shahar va qishloq o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning avj olishidan foydalanib, ulardan katta foyda undirdi. Iyun qo'zg'alonining bostirilishi yangi davrning Fransiya tarixi an'alarida to'ntarilish davri bo'ldi. Ilk bor mamlakat taqdirini hal

---

<sup>42</sup> П.В.Анненков. Парижские писма. М., 1983. Стр 177.

qilish inqilobiy Parijdan unga qarshi kurashayotgan mulkdor burjuaziya va pomeshchiklar provinsiyasiga o'tdi.

Parij ishchilarining "ishchilar va burjuaziya o'rtasidagi birinchi buyuk fuqarolar urushida"gi mag'lubiyati ikkinchi respublika tarixida eng yovuz burilish davri bo'ldi. Ishchilarning mag'lubiyati burjua respublikasi binosini kurash uchun bo'lgan zaminni tozaladi. P.V. Annenkovning ta'kidlashicha, "Men endi o'z ishchilarini o'ldirishdan boshlagan Respublikaning mavjudligiga ishonmayman"- deb Jorj Send iyun kunlaridan keyin achinib yozgan edi.<sup>43</sup> Uning xulosasi Kavenyakning iyundan keyingi terroristik rejimini ifodali tasdiqladi. Parij qamal holatida edi. Bu yana bir bor Kavenyakka hokimiyatni topshirish vaqtincha chora emas, balki burjuaziyaning demokratik inqilobni zabt etishdan bosh tortish ekanligini isbotladi.

Kavenyakning hukumati Vaqtli hukumat tomonidan ishlab chiqilgan temir yo'llarni milliy lashtirish loyihasini xususiy kompaniyalardan sotib olib bekor qilishga shoshildi. Iyul monarxiyasining moliyaviy tizimi butunlay tiklandi, Ta'sis majlisi merosga bo'lgan progressiv soliqni ham bekor qildi. Ish kunini cheklash haqidagi dekret bekor qilindi. Provinsiyadagi barcha "milliy ustaxonalar" tarqalib ketdi. Yirik burjuaziyaning yangi hujumi mayda burjuaziyani ham ayab o'tirmadi. 1848-yilning o'zida soliqni yig'ish bilan yuzaga kelgan dehqonlar isyoni Dardonda, Jerda, Pireneylarning tog'li hududlarida juda ko'p sodir bo'ldi.

1848-yil 15-iyulda Gere yaqinidagi Ajen qishlog'ida, Dardon departamentida 45 santimli soliqni majburiy undirish vaqtida 12 ta dehqon o'ldirildi, 25 tasi esa yaralandi. Burjua respublikachilarining bunaqa siyosati ularning diktaturasi zanini yanada ko'proq larzaga soldi. 1848-yil avgustda munitsipal saylovlarda monarxistlar hamma joyga tarqaldi. Ta'sis majlisiga qo'shimcha saylovlarda 1848-yil sentabrda 13 ta departamentlarda saylangan 17 ta yangi deputatlardan 15 tasi monarxistlar edi. Hammaning e'tiborini Lui Napoleon Bonaportning yutug'i tortdi.

---

<sup>43</sup> P.В.Анненков. Парижские письма. М., 1983. Стр 178.

U Parijdagi ishchilar qo'zg'aloni arafasida deputatlik mandatidan qat'iyatlik bilan voz kechadi va Angliyada qolishni afzal deb biladi.<sup>44</sup>

President haqidagi masalaning yechimi ikkinchi respublikada ko'ndalang turgan antidemokratik g'oya edi. Ta'sis majlisining burjua respublika ko'pchiligi monarxistlarning ikki palatali parlamentni tuzish haqidagi turli takliflarini rad etgan. Kanstitutsiya bir palatali parlamentni kiritdi-Qonunchilik majlisini, umumiy ovoz berish bilan 3 yilga saylangan. 1848-yilda burjua respublikasining reaksiyon yo'nalishi yagona, ajralmas suveren qonunchilik hokimiyatining demokratik an'analaridan qaytdi. U bu fransuz inqilobiy an'analariga AQSH ning konstitutsion modelini qarama-qarshi qo'ydi.

Konstitutsiya prezidentga hukumatni shakllantirish, vazirlarni tayinlash va bo'shatish, davlatning qurolli kuchlari amaldorlari, ofitserlari va boshliqlarini tayinlash va bo'shatish huquqini berdi. Prezident qayta shu lavozimga saylanmaslik huquqi bilan 4 yilga saylangan. Qonunchilik majlisini tarqatmaslik huquqiga ega edi. Lekin u parlament bilan kurashishi kerak edi. Konstitutsiya qabul qilingandan keyin ( 1848-yil 4-noyabr) Kovenyakning prezidentlik saylovlaridagi yutug'uga ushonib burjua – respublikachilar uni yaqinroq muddatga 1848-yil 10 dekabrga tayinlashga shoshilgan. Saylov komissiyasi davomida Kovenyak monarxistlar va klerikallarni o'z foydasiga o'g'dirib oldi va fransuz eskadrasini Rim papasini Rimda e'lon qilingan respublikadan himoyalash uchun Italiyaga jo'natadi.

Mayda burjua demakratlari Ta'sis majlisida "Tog'lar" deb nom olgan guruhni tashkil etishdi va prezidentlikka nomzod etib Ledryu-Rollenni tavsiya etishdi. Ko'p sonli ziyofatlar va yig'ilishlarda Gora "Tog'lar" 1848-yilda ishchi sinfiga o'z hamdartligini bildiradi. Lekin u demokratik lager kuchini birlashtira olmadi. Ishchilarning stachka qismi uning platformasini Ledryu-Rollenning saylovoldi nayranglari deb baholadi. Lekin 1848-yil prezidentlik saylovlarida Lui

---

<sup>44</sup> А.Н.Карамзин. Письмо А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 г. М., 1935. Стр 32.

Napoleon Bonaportning ko'p ovoz olishi katta tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. U uchun saylovchilarning  $\frac{3}{4}$  qismi ovoz berishdi.

Lui Napoleon uchun asosiy ovozni qishloq aholisi bergan. Fransuz dehqonlarining katta qismi "dehqonlar imperatori" Napoleon haqidagi afsona ichida edi. Dehqonlar uni mulklarini 45 santimli soliqdan himoyalaydi va soliqchilardan, qonxo'r zadogonlardan qutqaradi deb o'ylashadi.<sup>45</sup>

Napoleon dehqonlar uchun shaxs emas, dastur edi. Bayroqlari bilan musiqa ostida saylov qutilari yoniga "Yo'qolsin soliq, yo'qolsin boylar, yo'qolsin respublika, yashasin imperator!" shiori bilan borishgan. Ko'plab dalillar bu tavsifning to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi. Luar va Sher departamentlari bunga misol bo'la oladi. Lui Napoleon Burjuaziya respublikasiga qarshi birlashgan eng turli kuchlarning bayrog'i bo'ldi. Muhimi shundaki, bu safar kontrinqilobiy burjuaziya dehqonlarga tayana oldi. Bu esa bonapartizimning mohiyati edi. Shu tufayli burjuaziya o'zlariga qarshi chiqishlarni bartaraf qila oldi.

Burjua respublikachilari siyosati natijasida burjua respublikasidagi hokimiyat monarxistlar qo'liga o'tdi. 1848-yil 20 dekabrda Lui Napoleon respublika prezidenti lavozimini qabul qildi va qasamyod qildi. U respublikaga sodiq qolishga va konstitutsiya tomonidan unga yuklatilgan barcha majburiyatlarni so'zsiz ijro etishga qasamyod keltirdi. Haqiqatda esa Napoleon juda ayyor va hisob kitobli edi. Yangi hukumat boshlig'i etib Odilon Barro – Iyul monarxiyasi davrining "sulola oppazitsiyasi" sardori tayinlangan. Davlat apparatidagi barcha bo'g'inlaridagi amaldor-respublikachilar monarxistlar bilan almashtirilgan.

1849-yil yanvarida politsiya prezidentlik saylovlari vaqtida yuzaga kelgan "Respublika birdamligi" demokratik tashkilotini ishg'ol qildi. Monarxistlarning maqsadi - Ta'sis majlisini yangi parlamentga o'zgartirish edi.<sup>46</sup> Burjua respublikachilarini qo'shinlar bilan qo'rqitib monarxistlar Ta'sis majlisini o'zining tarqatilish haqidagi taklifni muhokama qilish roziligini oldi. 1849-yil fevralida bu

---

<sup>45</sup> А.Н.Карамзин. Письмо А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 г. М., 1935. Стр 38

<sup>46</sup> П.В.Анненков. Парижские письма. М., 1983. Стр 179.

taklif qabul qilindi va 1849-yil 13-mayda Qonunchilik majlisiga saylovlar belgilandi. Bu saylovlarda kontr inqilob yangi siyosiy vaziyatga to'qnashdi: mayda burjuaziyaning ko'payishi va mamlakatda demokratik harakatning yangi ko'tarilish bilan izohlanar edi. Bu vaqtda Ta'sis majlisi o'ngga burilsa, mamlakat aholisining ko'p qismi esa so'l tamonga ketdi.

Fransiyada iqtisodiy inqirozdan chiqish nomutonasiblik bilan farq qilib turgan. Yevropaga 1848-yilning ikkinchi yarmida kelgan sanoat to'ntarilishi Fransiyaغا biroz kechikib keldi. Sanoat inqirozining cho'zilishi qishloq xo'jaligidagi depressiya holati bilan bog'liq edi. 1848-1850 yillardagi yaxsi hosil sanoat va savdodagi inqirozli vaziyatda qishloq xo'jaligi narxlarining keskin tushishiga sabab bo'ldi.

1849-yil fevralida demakratlar va satsialistlar reaksiyaga qarshi kuchlarni birlashtirish haqidagi bitimni tuzishdi. Demokratik-sotsialistlar blok "Novaya Gora" ning qo'shma talablar dasturi ishlab chiqilgan. 1848-yil mart oyining boshlarida Blanki, Raspoyl, Barres, Alber va boshqa inqilobchilar Burjeda oliy Sud oldida javob berishdi, ularga uzoq muddatli qamoq jazosi berildi va surgun qilindilar.<sup>47</sup> Sanoat hududlarida alohida ish tashlashlar avj olgan bo'lsa ham, ishlab chiqarish ittifoqlari, pulsiz almashuv tajribasidan foydalanishgan.

Mayda burjuaziya sotsializmning refarmatorlik g'oyalari "Novaya Goda" dasturini to'ldirdi: "mehnat huquqi", ipoteka kreditini isloh qilish va sudxo'rlikni yo'q qilish, 45 santimli soliqni qoplash bilan, butun jamiyat manfaatlarida sug'urta ishi, bank, temir yo'l, boshqa aloqa vositalarini, shaxta va konlar ishini markazlashtirish va ishlatish talabi bilan bir qatorda. Bir vaqtning o'zida respublika va demokratik ozodlikni himoyalash, millatlar prinsipini hurmat qilish va xalqlar o'rtasidagi birodarlik ittifoqini amalga oshirish dasturi ilgari surildi.

1849-yil demokratik sotsialistlar blokdagi rahbarlik mayda burjuaziya demakratlariga tegishli edi. Chunki ular inqilobiy harakatlarsiz reaksiyani

---

<sup>47</sup> А.Н.Карамзин. Письмо А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 г. М., 1935. Стр 39.

yengmoqchi edi.1849-yil 13 mayda Qonunchilik majlisiga saylovlar bo'ldi. Burjuaziya respublikachilar saylovlarda mag'lubiyatga uchradi va ikkinchi o'rinni egalladi. Qonunchilik majlisida monarxiya burjuaziyasi vakillari- legitimistlar, orleanistlar, bonaportchilarustunlik qilishdi.

Qonunchilik majlisiga bo'lgan saylovlar mamlakatda sinfiy ziddiyatlarning kuchayishini va burjuaziya reaksiyasi yutuqlarining mustahkam emasligini ko'rsatdi.

Fransiyada burjua respublikasining ta'sis etilishi jarayoniga Annenkov va Karamzinlar bevisita manbalarga tayangan holda hamda o'zlari guvohi bo'lgan voqealarni yoritib berganligini yuqoridagi malumotlar isbotlaydi. Xususan, I.A.Molok o'zining “ Революция 1848 года и наша современность ” nomli asarida bu ikki manbashunosning ma'lumotlari Fransiyadagi ijtimoiy – siyosiy munosabatlarni yoritishdagi nazariy qarashlariga yuqori baho beradi.

Uning ta'kidlashicha, P.V.Annenkov “ Парижский писмо ” asarida Fransiyadagi burjua respublikasi tarixini mamlakat tarixidagi “yangilanish davri” deb munosabat bildirgan<sup>48</sup> .

A.N.Karamzin burjua respublika davri voqealarida ishchilar va hunarmandlarning ahvoli hamda mayda burjuaziyaning sanoatdagi yirik kapitalistlarga qarshi harakatlarini xususida fikr yuritadi. U mamlakat hayotidagi siyosiy nomutonosibliklarning bosh sababi sifatida kapitalistik jamiyatning ayrim ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini ko'zlayotganligini hamda asosiy mahnatkash ishchilar jamoasining iqtisodiy hayoti hali hanuz qoloqligicha qolayotganligini aytadi<sup>49</sup> .

---

<sup>48</sup> А.И.Молок. Революция 1848 года и наша современность. Л., 1949. Стр 31.

<sup>49</sup> А.Н.Карамзин. Писма А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 года. М., 1935. Стр 36.

## **2.2 Respublika davri voqealari - A.de Tokvil va V.Gyugo kabi zamondoshlar nigohida.**

Aleksis de Tokvil (1805-1859) murakkab va o'ziga xos egasi bo'lgan mutaffakkir bo'lib, u fransuz burjua tarixshunosligida katta iz qoldirgan. Uning qarashlarini turlicha baholash mumkin bo'ladi. Lekin qanday bo'lmasin, Tokvilga mutaffakkir sifatida berilayotgan baholarni qarama-qarshiligiga qaramasdan, uning keying tarixchilar avlodiga katta ta'siri bo'lganligi aniq hisoblanadi. Tokvilning o'ziga esa 1848-1849 yillar umumiyevro'pa inqilobining ta'siri katta bo'lganligini hech kim inkor etmaydi. Tokvilga, undan oldin yashab o'tgan, inqilob davri tarixchilari bo'lmish O.Tyerri, F.Mine, F.Gizo va boshqalarning ta'siri katta bo'lgan.

“Shu bilan birga, - deb yozgan edi P.V.Annenkov- Fransiyadagi sinfiy kurash saboqlari bunday sergak kurash saboqlari bunday sergak kuzatuvchining nazaridan chetda qolishi mumkin emasdi”.<sup>50</sup>

Inqilob davri fransuz tarixchilarining katta xizmati shundan iboratki, ular burjuaziya bilan feodal dvaryanlik o'rtasidagi sinfiy ziddiyatlarni ochib berishgan.

Tokvil yangi tarixiy sharoitda nisbatan sinfiy kurash konsepsiyasini burjuaziya va ishchilarga nisbatan qo'llaydi. “1848 yil inqilobi degan edi, - A de Tokvil – burjuaziya uchun, 1792 yil inqilobi dvaryanlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lsa xuddi shunday ahamiyat kasb etdi.” Aleksis de Tokvil “ tartib firqasi ” ning a'zosi bo'lib, uning dvaryan va royalist sifatidagi qarashlari ma'lum davri ochiqrog'I Lui Napoleon prezidentligi davrida O.Barro hukumatida tashqi ishlar vaziri lavozimini egallashga turtki bo'lgan edi. Ta'asis majlisi, keyinchalik qonun chiqaruvchi majlisi noibi sifatida A.de Tokvil, o'z nutq va maruzalarida hukmron sinf mafaatlarini nimoya qilar va hatto 1851 yili Konstitutsiyani qayra ko'rib chiqish komissiyasiga kirib, 1851 yil iyulida uning nomidan maxsus nutq bilan chiqardi.

---

<sup>50</sup> А.И.Герцен. Письма из Франции и Италии. М., 1950. Стр 28.

Sovet tarixiy adabiyotida Tokvilning ikkinchi respublikada tutgan o'rnini to'g'risida ikkita qarama-qarshi fikr mavjud. Masalan, M.A.Altakov uni "dvaryan tarixchisi", XIX asr fransuz tarixchilari mafaatlari ifodachisi sifatida ta'riflaydi. "Eski tartibda", - deb yozadi. Altakov – Tokvilning dvaryanlarga fikrlari faqatgina saqlanib qolmasdan balki yanada kuchaydi. Altakov kabi fikr yurituvchi tarixchilardan biri Bendrikovadir. " Inqilobiy jarayonlarning yuksalib borishi bilan deb yozadi, u- Tokvil to'la to'kis reaksiyon pozitsiyaga o'tib oldi va kontrevolyutsion tartib firqasining rahbarlaridan biriga aylandi. "51

V.M.Dalin bu masalada boshqacha nuqtai-nazarda turar va 1848-yil inqilobi ta'siri Tokvil respublikachilar pozitsiyasiga o'tdi deb hisoblaydi<sup>52</sup> . Lekin respublikachi bo'lish va respublika pozitsiyasiga o'tish bir narsa emas, Aleksis de Tokvil burjua – dvaryan tarixchisi 1848-yil inqilobi davomida respublika pozitsiyasiga o'tgan edi.

Hukmron sinfning eng o'qimishli va teran fikrlovchi vakili sifatida Tokvil faqat burjua respublikachisigina bundam keyin legitimchilar, arkeanchilar, bonaportchilar kabi barcha monarxistik burjua fraksiyalari manfaatiga xizmat qila olishini ko'ra bildi. O'zini kelib chiqishi dvaryan bo'lishiga qaramasdan, ham burjuaziya manfaatlariga xizmat qilgan. Iyun qo'zg'aloni burjuaziya bilan dvaryanlarning umumiy dushman- ishchilar sinfiga qarshi birlashtirdi. Natijada burjuaziya va dvaryanlik o'rtasida ko'pgina muhim masalalarda umumiy qarashlar vujudga keldi.

A.Tokvilning ikkinchi respublika yillaridagi faoliyatini o'rganishning ahamiyati ana shundaki Gersen yozganidek: voqealarning siyosiy mohiyatini anglashga yordam beradi. 1848-yildagi Fransiyadagi inqilobni o'rganish bo'yicha Tokvil asarlari orasidagi eng asosiy manba bu uning " Esdaliklari" dir.

Ular hukmron sinflar vakillarini inqilob davridagi uy fikrlari, bevosita qilgan ishlarini o'rganish bo'yicha qimmatbaho manbadir, bundan tashqari A.Tokvil hukmron doiralar aksilinqilobiy faoliyatining parda ortidagi basharasini ochib

---

<sup>51</sup> А. А.И.Герцен. Письма из Франции и Италии. М., 1950. Стр 31.

<sup>52</sup> М.А.Апатов. Политические идея французской историографии XIX в. М., 1949. Стр 12

berdi. 1848-yil inqilobi va ikkinchi respublikaning asosiy voqealari “ Esdaliklari” da o’ziga xos jilo topdi. Reaksiyon va aksilinqilobchi qarashlari bo’lgan holda Tokvil ikkinchi respublika davrida Fransiyada bo’lib o’tgan voqealarni haqqoniy sharxlaydi.

Parij proletariatining iyun qo’zg’aloni Tokvilning alohida e’tiborini tortdi. Bu qo’zg’alon uning fikriga nafaqat Fransiya, balki boshqa mamlakatlar tarixidagi qo’zg’alonlardan shu bilan farq qilar edi.

Parij qo’zg’aloni “ eng ulkan” va “ eng notabiiy” edi. Tokvil fikricha iyun qo’zg’aloni mavjud burjua jamiyatiga qarshi qaratilgan edi. Bu ishchilarning mavjud hukmron burjua tuzumini ag’darishga qaratilgan birinchi urinishi edi. Xuddi shuning uchun 1848-yil inqilobini Tokvil “ sotsialistik” deb baholadi. Tokvil ishchilarning mulkdorlarga qarshi jipslashib mardonavor kurashganlaridan hayratlangan edi.<sup>53</sup> Fransuz armiyasining eng yaxshi generallari – Brea, Domem, Dyuviv, Negra va Reno Parij ishchilariga qarshi kurashda halok bo’lishgan edi. Qo’zg’alonchilarning hukumat qo’shinlaridan farqli o’laroq yo’lboshchilari yo’q edi va shuning uchun ularning qo’shinlari ba’zi bir jihatdan stixiyali xarakterga ega edi.

Tokvilning haqqoniy fikricha faqatgina blankistlar bu ulkan qo’zg’alonning boshida turishlari mumkin edi. Afsuski, ular 15 mayda o’z dushmanlari qo’liga tushib, Vensen qamoqxonasi devorlari uzra tup ovozlari eshitishga majbur bo’ldi.

Tokvilning kayfiyati xavotir va qo’rqinchligi do’sti Blanga yozgan xatlarida o’z isbotini topgan edi. U 1848 yil 20-oktabr kuni xatida “ men haqiqatdan ham Banopartni saylanishini juda mumkin deb hisoblayman:

1849-yil 4-noyabr kuni Lui Napoleonning nomzodi Fransiyada “ Respublikani yo’qolishini” anglatadi: 1848 yil 3 dekabrda men uchun metindek qattiq va g’oyasi qayg’uli bo’lgan fikrdamanki, biz muvaffaqiyatga uchraymiz”. 1848-yil 8 dekabrda “ Men sizga ko’p marta yozganimdan biz Lui Napoleon

---

<sup>53</sup> А.Н.Карамзин. Письма А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 года. М., 1935. Стр 40.

prezidentligi xizmatida bo'lish ehtimoli kuchaydi.”<sup>54</sup> 1848-yil 10 dekabr kunidagi prezident saylovida mamlakat prezidenti qilib Lui Napoleon Bonaportni saylanishi Tokvilni xavotirlanishini to'laligicha isbotladi.

Lui Napoleonga shaxsiga Tokvil tomonidan berilgan xarakteristika ayniqsa e'tiborlidir. Tokvil unga hurmat ehtirom bilan yondashib uni “eng achinarli fitnachi” deb ataydi. U Lui Napoleonning juda ham aniq psixologik holatini isbotlab bergan. Tokvil prezident shaxsiyatiga xushyorlik bilan baho berar ekan, faqat prezidentga emas, Fransiyada siyosiy holat XVIII asr oxiri va XIX asr boshidan shu asr o'rtalarigacha kelib ancha o'zgarib ketganiga xolisona baho beradi. Tokvil Blanga yozgan xatida millatga yangi zamonning eng ulug' buyuk rahbarlaridan keyin biz hozirda eng kuchsiz bosqinchini etagini ushlashga tayyormiz deydi.

Tokvil Lui Napoleon to'g'risida aktyor o'ynayotgan roli munosib emas, uning atrofida ko'pgina ijrochilar yig'ilyotganligi sababli spektakl yaxshilab ijro etilmoqda deb yozilgan edi.

Nima sababdan juda ham kuchsiz, ilohiyatsiz shaxs sifatida tanilgan Lui Napoleon Fransiyada XIX asr o'rtalarida ma'lum siyosiy ro'l o'ynayotganligi, uning aqlliligiga emas, balki ahmoqligidadir. Ayrim davrlarda mamlakat ham mavjud teatr sahnasiga o'xshab ketadi, unda aktyorlar yomon spektaklni yaxshilab o'ynashga erishadilar. Agarda Lui Napoleon aqlli va ilohiy shaxs bo'lganda edi, u hech qachon Fransiyada prezidentlik boshqaruvini tugatmas edi.<sup>55</sup>

Yana bir zamondoshlardan biri Viktor Gyugo bo'lib, u 1802-yil 26-fevralda dunyoga keladi. Yozuvchining otasi – Jozef Leapold Sigizber Gyugo – Fransiya armiyasining ofitseri bo'lib, u inqilob davrida oddiy xalqdan chiqqan va respublika uchun jang qilgan kishilardan edi. U 15 yoshligida armiyaga yoziladi. Viktor Gyugoning onasi- Sofi Grebshe boy oiladan chiqqan bo'lib, uning otasi monarxiya tarafdori edi. Viktor Gyugo 9 yoshligigacha onasining to'la tarbiyasini oladi. U keyinchalik Lyudovik Kollejida table olgan.

---

<sup>54</sup> А.И.Герцен.Былое и думы.М., 1973. Стр 149.

<sup>55</sup> Р.Ф.Фармонов. Развитие французской общественно политической мысли в годы Второй республика (1848-1851). М., 1992. Стр 25.

Viktor Gyugo ilk ijodida monarxiya tomonida turib ijod qiladi, vaholangki u juda yoshligidan ijod qilishni boshlaydi. Unga va uning ijodiga Lomartin va yana ko'proq Shatarblan kabi yozuvchilarning ijodi katta ta'sir qiladi. 14 yoshli Viktor Gyugo o'z kundaligida: "Men Shotablan bo'lishni xoxlayman yoki hech kim bo'lmayman"- deb yozib qo'yadi. Viktor Gyugo va uning ukasi Shotablga talqin qilib 1819 yildan " Adabiy konservator" oynamasini chiqara boshlashadi. Bu oynada Viktor Gyugo o'zining sherlari bilan, filosofik qarashlari bilan chiqib turadi.<sup>56</sup>

Davr o'tishi bilan Viktor Gyugoning hayotga nazari o'zgarib bordi. Fransiyadagi buyuk siyosiy voqealarning zamondoshi bo'lgan Viktor Gyugo bu voqealardan chetda turmadi. Yoshlik davrida burbonlar sulolasi tarafdori bo'lgan Gyugo keyinchalik burjua-demokratik lagerga qo'shildi. Iyulin qilobini yaxshi qarshi olib, uni she'rlarida talqin qildi. 1848-yildagi inqilob esa Gyugoni respublikachiga aylantirdi.

Viktor Gyugoning "Napoleon" va "Bir jinoyat tarixi" nomli pomfletlarini yozuvchining katta merosi bo'lib, bu asarlar Fransiyadagi voqealarni juda yorqin yoritgan. Bu asarlar 1852-yilda yozilgan edi. Viktor Gyugo o'zining "Napoleon" asarining Lui Napoleoni prezidentligiga saylanishidan boshlab, uni ta'sis majlisida qasamyod keltirishini tasvirlash bilan boshlashdi. Lui Napoleon 2 marta (1836 va 1840) hokimiyatni qo'lga kiritish va Napoleon imperiyasini tiklashga harakat qilgan kishi edi. U juda aqlli kishi bo'lmasada, lekin juda ayyor edi.

Viktor Gyugo Napoleon Bonaport haqida yozib shunday deydi: " U nima xoxlashini biladi va o'z istagini qondira oladi. Bu qondirish odillikni, qonunni, haqiqatni, halollikni, insoniylikni poy-mol qilishni talab qilsada".<sup>57</sup>

Viktor Gyugo Lui Napoleon haqida juda o'tkir fikrlar yuritadi. 1851 yil 2-dekabrda Lui Napoleon davlat to'ntarishini amalga oshirdi. U ko'pgina partiya

---

<sup>56</sup> А.И.Герцен. Былое и думы. М., 1973. Стр 155..

<sup>57</sup> А.Н.Карамзин. Писма А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 года. М., 1935. Стр 42.

rahbarlarini hibsga oldi. Qonunchilik majlisini tarqatib yubordi. 1848-yildan respublikachi bo'lganligi sababli Viktor Gyugo bu voqeani qattiq qoralaydi va jinoyat deb ataydi: “ Bu jinoyat o'zida sotqinlik kasalini buzish, qotillik, yolg'onchilik, o'g'rilik va hokozalarni qamrab olgan edi.”

Viktor Gyugo Napoleoni uni amakisi bilan taqqoslab shularni yozadi: “ Uning amakisi tarixda o'z nomini Kir II, Aleksandr, Gannibal, Sezir, Buyuk Karl qatorida tilga olishlarini istadi. Lui Napoleon esa faqat yaxshi yashashni xoxlaydi. Unga yaxshi otlar hamda suyuq oyoq ayollar kerak. U o'zini “ MONSENYOR” deb atashlarini xoxlaydi. Va shuning uchun u dekabr to'ntarishini amalga oshirdi.”

Viktor Gyugo amaki va jiyanni bir-biriga solishtirar ekan, bu solishtirish bir qancha va qaysidir ma'noda to'g'ri kelmasligini tasdiqlaydi, ya'ni: “Bizning solishtirishimiz bir qancha oqsoqlanayapdi, chunki imperiyani jang qilish yo'li bilan qo'lga kiritish, uni bunyod qilish, boshqa imperiyani ko'z bo'yamachiligi bilan qo'lga kiritish umuman boshqa narsalardir.”

Butun vujudi bilan respublika tarafdori bo'lgan Viktor Gyugoga 2-dekabr voqealari qattiq ta'sir qiladi. U va uning do'stlari har xil voqealar chiqarib xalqni oyoqqa turgizishga Lui Napoleonga qarshi turishga chaqiradi.<sup>58</sup>

1851-yil 2-dekabrda Fransiyada o'zgarish qilishga ko'zi yetmagach, u Fransiyani tark etadi. Viktor Gyugoni “Napoleoncha” asarida quyidagi jumlar bor edi: “ Men butun olamga qichqiraman va mening bu hayqirishimga butun insoniyat vijdoni qo'shiladi”, “ Lui Napoleon Fransiyani so'yi b tashladi, Lui Napoleon o'z onasini o'ldirdi! ”

Viktor Gyugoning Lui Napoleon amalga oshirgan to'ntarishni qanday baholagani shu jummalarni o'zidayoq namoyon bo'lib turibdi. Viktor Gyugo o'zining “ Bir jimoyat tarixi” asarida dekabr kunlaridagi Fransiyani tasvirlab beradi. Fransiyada nom chiqargan ko'pgina kishilarni bu to'ntarishga munosabatlarini bayon qilib o'tadi.

---

<sup>58</sup> Р.Ф.Фармонов. Развитие французской общественно политической мысли в годы Второй республика (1848-1851). М., 1992. Стр 23.

Viktor Gyugo o'zining "O'ch" she'riy to'plamida ham Lui Napoleonning qilgan davlat to'ntarishini yanada qattiqroq qoralaydi va o'z nafratini she'r bilan ifodalaydi:

Все человечество за Францией следит  
И вот явились же, явился он бандит.  
Он, воплощенное безчестие и сразу,  
Распространил пожар мучительство, заразу.  
Наживы рыночной и подкум и обман,  
Швырнул в лрядущее горсть  
Мер зостных семян.

Viktor Gyugo o'z sherlarida xalqni bu to'ntarishni mohiyatini tishuntirishi va xalqni oyoqqa turg'izishni xoxlar edi.

A.de Tokvil va Viktor Gyugolarning yuqorida keltirilgan ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bu ikki tarixchilar bergan tarixiy ma'lumotlar 2-respublika davridagi butun iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy voqealarni to'laligicha ochib berishga xizmat qiladi. Ayniqsa ularning xalq taqdiri hamda ularning ijtimoiy munosabatlardagi ishtirokini tarixiy qonuniyatlarga mos ravishda yoritganligining guvohi bo'lamiz. Undan tashqari bu shaxslarning Lui Napoleonning siyosiy faoliyatini haqqoniy baholay olgani ham kitobxonni o'ziga jalb qiladi.

Ular har bir tarixiy voqea-hodisani o'z ko'zlari bilan ko'rib, guvohi bo'lganlarini yoritishga bor kuchlari bilan harakat qilishadi. Shu sababli ham ushbu zamondoshlarning 2-respublika haqidagi ma'lumotlariga o'sha davr rus tarixchilari ham iliq munosabatda bo'lishgan.

### 2.3 Fransiyada 2-respublikaning halokati.

1849-yilning kuzida Parijda “10 dekabr jamiyati” maxsus bonapartchilar tashkiloti tuzildi. Uning ta’ sischilari Lui Napoleonni qurshab turgan bonaportchilar edi. Jamiyatning maqsadi xayriya-uning a’zolari o’rtasida o’zaro yordam va muxtojlariga yordam edi. Lekin haqiqatda esa bu shior ostida umuman boshqa ma’no yotar edi. Jamiyat maxsus otryadlarni ta’minlagan, ularning yordamida jamiyat Lui Bonapotning paydo bo’lishi bilan ko’chalarda tantana bilan kutib olgan. Lekin “10 dekabr jamiyati” banapatrchilar to’ntarishiga tayyorgarlik ko’rish muammolarini chuqur hal etmagan.

U Lui Banaportga kallakesar va tansoqchilarni tayyorlovchi yordamchi tashkilot edi. Amaldorlarni, ofitserlarni va askarlarni jalb qilish uchun davlat hokimiyatini qo’llash zarur edi. Bu yo’nalishda hal qiluvchi yordamni 1849-yil oktabrda birinchi bo’lib prezident qo’ydi. U Barro hukumati – Falluni istefoga chiqardi. 1849-yil 31-oktabrda tashkil topgan yangi vazirlikka Lui Banaport tayinlandi.<sup>59</sup> Sobiq legitimist general d’ Opol kengash raisi o’rinbasari va harbiy vazir etib saylandi. Sobiq orleanchi Barro ichki ishlar vaziri etib saylandi. Eng obro’li shaxs moliyachi Fuld edi. Fuld Lui Napaleon tomonidan tuzilgan ittifoqni moliyaviy aristokratiya bilan mujassamlashtirgan. Fuld qo’shimcha soliqni kiritish loyihasidan bosh tortgan. 1850-yil 1-yanvardan vino solig’i tiklandi.

Butun mamlakat beshta harbiy okrugga bo’lingan, ularning boshlig’i inqilobchi generallar edi, joylarda cheklanmagan ustunlikka ega edi. 1849-yilning ikkinchi yarmida Fransiya sanoati va savdosidagi iqtisodiy ko’tarilish reaksiya yutuqlarining muhim manbai bo’ldi. Ham banaportchilar, ham “tartib partiyasi” iqtisodiy inqirozni tugatish ishida ishtirok etishdi. Non va vino narxi 1848-yildagiga nisbatan yana pasayib ketdi. Yirik burjuaziya va boy dehqonchilik ahvoli mustahkamlandi. Savdogarlik va burjua o’yinlari o’sdi. 1850-yilda ta’ sis etilgan aksionerlik jamiyatlari soni uch barobarga oshdi. Mayda burjuaziya va dehqonlarning ma’lum qismining oppazitsion kayfiyati qonunchilik majlisiga

---

<sup>59</sup> П.В.Анненков. Парижские письма. М., 1983. с 179.

qo'shimcha saylovlarni o'tkazishga majbur qildi. Bu saylovlar 1850-yilning 10-martida o'tkazildi, hukumat tomonidan qo'llanilgan politsiya terrorchilik choralari istalgan natijani yaxshi taminlaydi deb o'ylagan. Saylovlar reaksiyaning mag'lubiyati bilan yakunlandi. Gora yana 31 ta o'rindan 20 tasini egalladi. Saylovlar yakuni Goraning ajoyib g'alabasini anglatgan. Parijda "tartib partiyasi" nomzodlariga qarshi demakratik blok burjua respublikachilari, mayda burjuaziya demakratlari va satsiolistlar ittifoqi nomzodlarini chiqardi.

Bunday kuchga birlashish uchun Parij demakratik saylov qo'mitasi o'z ro'yxatiga vaqtili hukumatning sobiq maorif vaziri Karno, sotsialistik nazariyotchi Vidalni va surgundan qaytib kelgan demakrat de Flottni o'z ro'yxatiga yozib qo'ydi. Goraning uchala nomzodi saylandi. Bu nomzodlarning g'alabasi katta siyosiy ahamiyatga ega edi. U avvalambor fevral kunlarining moliyaviy aristakratiya yangilanishni anglatdi. Gora g'alabasi shundan dalolat berdiki, armiya repressiya va "tozalash" ga qaramasdan burjua diktaturasining ishonchli tayanchiga aylanmadi. Parijda ko'plab askarlar demakratik nomzodlar uchun ovoz bergan, departamentlar qatorida askarlar demakratlar va sotsialistlar uchun ovoz berishgan.<sup>60</sup> Birja kurslari keskin tushib ketdi. Demakratlarning yutug'idan Lui Napoleon ham qo'rqdi. Ichki ishlar vaziri Barro juda zaif deb topilib, istefoga chiqarildi.

Uning o'rniga qattiq qo'l prakuror Barosh tayinlandi. Shu bilan birga Lui Napoleon "mehnatkash omma uchun islohatlar" foydasiga kompaniyani tuzishga harakat qildi. Bu "napoleoncha ijtimoiy siyosat" ishchilarni yolg'on va'dalar yordamida bonaportislar lageriga jalb qilishni anglatgan. 1850-yil fevralda bonaportchilar tomonidan ilgari surilgan bank kapitallari kapitalistlarning mablag'laridan tuzilishi kerak edi. 10-martda o'tkazilgan qo'shimcha saylovlarda demakratlarning yutug'iumumiy saylov huquqini tugatish haqidagi masala yechimini tezlashtirdi. Yirik burjuaziya vakillari, ayniqsa orleanchilar anchadan beri saylovchilar uchun u yoki bu shaklda senzni tiklashga kirishgan.

---

<sup>60</sup> А.И.Герцен. Писма из Франции и Италии. М., 1950. стр 36..

Orleanchilarning asosiy “Jurnal de Deba” gazetasining yozishicha: “Umumiy saylov huquqi bizni oxir- oqibat halokatga olib keladi”.<sup>61</sup> Ushbu jurnalda ko'tarilgan masala “tartib partiyasi” rahbarlari doirasida 4 va 17 martda majlisda muhokama qilindi. Demakratlarning yangi saylov yutuqlari masalaning tez hal bo'lishiga olib keldi. Vozelzar departamentida 31 mart kuni bo'lib o'tgan qo'shimcha saylovlarda yana demokratik nomzod g'alaba qozondi. 1850-yil 28-aprelda Parijda bo'lib o'tgan yangi saylovlar hammadada katta taassurot qoldirdi. Bunga sabab, 10 mart kuni Parijdan deputat saylangan va bir vaqtning o'zida Quyi Reyndan deputat etib saylangan Vidal o'zining Parij mandatidan bosh tortdi. Yangi qo'shimcha saylovlarda demokratik- satsiolistik blok mashhur yozuvchisi Ejen Syuning nomzodini qo'ydi.

Parij ishchilari va mayda burjuaziya ichidauning nomi hurmatga sazavor edi. Syu to'la g'alabani qo'lga kiritdi. Bundan keyin “tartib partiyasi”dan tashkil topgan 17 ta ko'zga ko'ringan a'zoldan iborat komissiya “burggraflar” deb atalib, tezda qonun loyihasini ishlab chiqqan. Loyihada uch yil mazkur joyda yashayotgan shaxslargina va shaxsiy soliqni to'lab kelayotganlar ro'yxatida turganlarga saylash huquqi berilishini ko'zda tutilgan. Qonun loyiha hukumat nomidan va prezident roziligi bilan Qonunchilik majlisiga kiritilgan.

Umumiy saylash huquqini bekor qilish haqidagi qonun loyihasi demokratik – respublika lageridagi kuchli noroziliklarni keltirib chiqardi. Respublika matbuoti va oratorlar ommani tenglikni saqlashga chaqirdi. 31 mayda qonun loyiha 433 ta ovoz oldi. Respublikachilardan tashqari, unga qarshi ba'zi bonapartchilar va alohida legitimistlar ovoz berishdi. Kiritilgan cheklashlar qishloq boylarini, qishloq va shahar kambag'allarini saylash huquqidan mahrum qildi. Butun Fransiya bo'ylab saylovchilar soni 29 % ga kamaydi. Parijda 220 ming saylovchilardan 144 ming kishi saylash huquqidan mahrum bo'ldi. Lillda 10438 kishi, Rubeda 4085 kishi, Turkuenda 3500 kishi saylash huquqidan mahrum bo'ldi. Umumiy saylov

---

<sup>61</sup>П.В.Анненков. Парижские письма. М., 1983. Стр 180.

huquqini yo'q qilish demaktatik kuchlarga qarshi yangi repressiyaga yo'l ochdi. Qonunchilik majlisi faoliyati davomida 126 ta munisipalitetlar tarqatildi va 1005 ta merlar va ularning yordamchilari o'zgartirildi. Milliy gvardiya ham haydaldi. 1851-yilda Strasburgda, Grenobulda va Fransiyaning janubiy, sharqiy va markaziy viloyatlarida milliy gvardiya tarqatildi.

1851-yilda Qonunchilik majlisi tomonidan qabul qilingan milliy gvardiya haqidagi yangi qonun uning tarkibidan o'z hisobidan kiyina olmagan shaxslarni chiqargan. 1850-yil iyulda Qonunchilik majlisi tomonidan qabulqilingan pul zakotini 25 ming frankgacha oshirgan.

1850-1851 yillar davomida Fransiya bonapartchilar tomonidan politsiya davlatiga aylantirildi. Politsiya terrori, legetimistlar va orleanchilar Lui Napoleonning qo'liga davlat to'ntarishini tayyorlash uchun barcha vositalarni berdi.<sup>62</sup>Mayda burjuaziya demakratlari, burjua respublikachilari bitta taktikani qo'llashgan.Gora dasturida mavjud soliq islohatlari talabi, g'ayri qonuniy xarakterga ega edi.Ledryu-Rollen, Deleklyuz, Marten-Bernallar Goraning qonunchilik majlisidagi qo'rroqlarcha taktikasini tanqid qilishdi.Ular umumiy saylov huquqini himoya qilishga bo'lgan qurolli qo'zg'alon shiorini targ'ib qilshdi.

Emigrant – daholarning “inqilobliligi” Gora deputatlarining ko'pchiligida ularga nisbatan yovuzlarcha munosabatda edi. Ledryu-Rollen va Deleklyuzning chiqishlari Goraning mag'lub bo'lishiga sabab bo'ldi. “Novaya Gora” ning ba'zi arboblari ommaning yangi inqilobiy chiqishlarini tayyorlash yo'liga chiqdi.Bunda Ta'sis majlisining sobiq deputati, Avinon advokati, Goraning Londonlik daholari bilan ularning ko'rsatmalari ostida ish olib borgan Jan faol ishtirok etdi. Jan rahbarligi ostida markaziy va janubiy departamentlarda noqonuniy tashkilotlar tarmog'I yaratildi. U “Yosh Gora ” deb nomlangan, uning yordamida umumiy saylov huquqini tiklash uchun kurashni ko'tarish nazarda tutilgan. Biroq politsiya provokatsiyalari va 1850-yil repressiyalari “Yosh Gora ” tashkilot va Janning faoliyatiga yakun yasadi. Demakrat-sotsialistik blok deyarli tarqaldi. Gora ichki

---

<sup>62</sup> А.И.Герцен.Былое и думы.М., 1973. Стр 148.

kelishmovchiliklar bilan tarqaldi. Bu xavfli va fojiviy ahvolni ishchilarning inqilob daholari- blankichilari ham yenga olmadi.

Ularning tashkiloti ularga 1848-yil may-iyun oylarida reaksiya tomonidan yetkazilgan og'ir zarbani yenga olmadi. Eng yaxshi blankichilar va Blankining o'zi qamoqda edi. Mag'lubiyat darslari blankichilar uchun izsiz ketmadi. Blankining o'zi qamoqda o'tirganida bu haqda ko'p o'ylagan. U o'z tarafdorlari va ishchilarni yomon qarashlar, mish-mishlardan, tojovuzlardan himoyalagan. Boshqa ishchi daholar kabi Blanki bu davrda inqilobning yangi ko'tarilishini, yangi xalq qo'zg'olonining g'alabasini kutgan. Inqilobning yangi fazasi uchun asosiy talab sifatida ishchilarni qurollantirish va burjuaziyani qurolsizlantirishni nazarda tutgan. Blanki fransuz aholisiga murojat qilib shunday degan: “ burjuaziya gvardiyasini qurolsizlantirmagan, ishchilardan iborat milliy militsiyani tashkil etish va qurollantirishni o'ylamagan hukmdor sotqin hisoblanadi. Albatda boshqa choralar ham qo'llanishi kerak, lekin birinchi o'rinda ana shular xalq uchun xavfsizlikning yagona garovidir.”<sup>63</sup>

1850-yildagi parlament ta'tillarida legitimist sardorlari Visbadenga yo'l olishdi, Orleanchilar Angliyada yashagan Lui Filippning nabirasi graf Parijskiy bilan muzokaralarni olib bordi. Lui Filippning o'limidan keyin ikkala raqobatchi sulolalarni birlashtirish uchun kurashgan monarxistlar ichida kuchli oqim boshlandi. General Shangarne bu loyihani armiya bilan yordam berishga va'da berdi. Ham legitimistlar, ham orleanchilar Lui Napoleonni o'z rejalarining buzilishiga sababchi deb bilishdi.

Doimiy komissiya o'zining tarkibida birorta bonaportchilarga aga emas edi. Lui Napoleon provinsiyalarga sayohat qilib, burjuaziya va dehqonlar muhitidan o'ziga komanda yig'di. Sanoat va savdodagi jonlanishdan foydalanib, u o'z hokimiyatini mamlakatning iqtisodiy gullab-yashnashi uchun sharoit kabi reklama

---

<sup>63</sup> А.И.Герцен.Былое и думы.М., 1973. Стр 153.

ishlarini amalga oshirdi va uning saqlab qolinishi yangi iqtisodiy ko'tarilishning va cheksiz kapitallarning to'planishi garovi bo'ladi, deb ta'kidlagan.

Asosiy e'tiborni banopartchilar armiyaga ajratgan. Ular har qanday usullar bilan ofitser va soldatlarni sotib olishga, o'z atrofida yig'ib armiyaning yomon elementlarini ko'rsatishga harakat qilgan. Lui Napoleon va uning shu masalalar bo'yicha maslahatchisi kapitan Fleri prezidentning shaxsiy adyutanti bo'lib olib, ofitserlarni sotib olishga kuch va mablag'larini ayamagan. Fleri Lui Napoleonga bonapartchilarning harbiy cho'qqisini tanlashda ko'p yordam bergan. U Napoleonga general Leruani o'ziga yaqin olishni maslahat beradi.

Fleri ayyorlarcha bu generalni yuksaltirish rejasini ishlab chiqdi. "Tartib partiyasi" va prezident Lui Napoleon o'ratidagi nizo ayniqsa 1850 yil kuzida kuchli bo'ldi. 1850 yil noyabrda Qonunchilik majlisining ochilgan sessiyasi o'tkir kurashni oldindan aytib berdi. Biroq Lui Napoleon undan voz kechdi. U d'Opulga istefo berdi, qog'ozda "10 dekabr jamiyati" ni tarqatdi va Majlisga murojat qildi.

1851-yil yanvarida Lui Napoleon Parij garnizo qo'shinlari qo'mondoni lavozimidan uning asosiy raqibi bo'lmish – general Shangarneni bo'shatdi. Shangarnening ishdan ketishi harbiy hokimiyatning "tartib partiyasidan" Lui Napoleon qo'liga o'tishga to'siq yasadi.<sup>64</sup> Lekin Shangarnening ketishi Majlis tomonidan jiddiy to'qnashuvga uchramadi. Shangarnening istefoga chiqqanidan keyin prezident va parlament o'rtasidagi kurash yangi bosqichga kirdi: u ochiq xarakterga ega bo'ldi. 1851-yil 12 yanvarda Lui Napoleon yangi vazirlikni tashkil etdi, unda oldingi vazirlardan faqat Barosh va Fuld qolgan edi. Majlis bu vazirlikka ishonch bildirmadi.

1951-yilning kuzigacha cho'zilgan sanoat depressiyasi erkin kapitallarni qo'llashni istaganlarga yomon ta'sir etdi. 1851-yilda ta'sis etilgan aksionerlik jamiyatlari soni 1850-yildagiga nisbatan ikki karra kamaydi. O'sha vaqtda 1851-yilning iqtisodiy depressiyasi dehqonlarning respublikadan noroziligini yanada

---

<sup>64</sup> А.Н.Карамзин. Письма А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 года. М., 1935. Стр 28..

kuchaytirdi. Qishloq xo'jaligi departamentlaridan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga narxlarning pasayishi tufayli aholining nochor ahvoli haqidagi xabarlar kela boshlagan.

Aholi imperator moddiy gullab-yashnashni qaytaradi deb o'ylagan. "Bonapartlar sulolasi inqilobchi emas, konservator dehqonlarni namoyish etgan".<sup>65</sup> 1851-yil kuzida Liondagi harbiy tribunal "Moladaya Gora" ni hukm qildi. Politsiyachilar yordamida keng, tarmoqlangan fitnachi tashkilotning tuzilishida ayblov qo'yilgan edi. Prokurorlar xalqning har bir g'alabani "fitna" yoki "isyon" ko'rinishida tasvirlashgan. Ardesch departamenti qamal holatida e'lon qilgan.

Bunga 1850 yil noyabrda sodir bo'lgan tartibsizliklar sabab bo'ldi. Bonaportchilar matbuoti Majlisga bosim o'tkaza boshladi. Bonaportchilar lageriga qo'shilgan qonunchilik majlisining monarxist deputatlari soni kundan kunga oshib bordi. Qonunchilik majlisidagi ovoz berishlar "tartib partiyasi" o'z mustaqil ustunligini yo'qotganidan dalolat berdi va bonaportchilar bilan kurashda respublikachilarning yordamiga muhtoj edi.

Mehnatkash ommaga nafrat bilan qaragan monarxistlar ishchi sinf va demokratik harakatlanishga nisbatan bu kursini davom ettirdi. Respublikachilar tomonidan 1851-yil fevralda taklif etilgan siyosiy mahbuslarga amnistiylar Majlis komissiyasida rad etildi. Mamlakatning siyosiy hayoti markazida konstitutsiyani ko'rib chiqish haqidagi taklif turgan. Bonaportchilar konstitutsiyani qismlarga bo'lib ko'rib chiqish g'oyasini qo'llab quvvatlagan, chunki ular bir shaxsni ikkinchi muddatga respublika prezidenti etib saylanishga qarshi edi. Legitimistlar konstitutsiyani to'la ko'rib chiqishni – respublikani yo'q qilish va Burbonlarni restavratsiya qilishni istagan. Orleanchilar parchalandi. Orleanchilarning bir qismi "to'la ko'rib chiqish" loyihasini prezidentlikning o'n yillik muddatini o'rnatishni nazarda tutib qo'llab-quvvatlagan.

Orleanchilarning boshqa qismi Tyer boshchiligida konstitutsiyani qayta ko'rib chiqishga qarshi edi, chunki lui Napoleonning prezidentlik vakolati muddati tugashi bilan o'z lavozimini prezidentlikka nomzod qilib ko'rsatmoqchi

---

<sup>65</sup> П.В.Анненков. Парижские письма. М., 1983. Стр 181.

edi. Kuznstitutsiyani qayta ko'rib chiqish haqidagi taklif 1851-yil yozida bekor qilindi. Bu taklifga qarshi respublikachilar, orleanchilarning bir qismi (Tyer tarafdorlari) va alohida legitimistlar ovoz berishdi.

Lui Napoleon endi to'ntarish haqidagi o'ylab boshladi. Lakin Sent-Arno to'ntarishda ishtirok etishdan bosh tortdi. Va Lui Napoleonga vaziyat muvaffaqiyatsiz yakunlanganligini isbotladi: butun mamlakat bo'ylab ta'tilga tarqalgan Qonunchilik majlisi deputatlari joylarda qarshiliklarni tashkil etishlari mumkin. Lui Napoleon va uning yaqin maslahatchilari – Morni, Persini, Ruer Sent-Arno taxminlariga qo'shildi.<sup>66</sup> To'ntarilish muddati Qonunchilik Majlisi o'z ishini boshlagan vaqtga ko'chirilishga qaror qilindi, uni tarqatib, eng mashhur deputatlarni hibsga olmoqchi edilar.

Sent-Arnoning xavfsirashi Lui Napoleonga katta taassurot qoldirdi. Majlisda yagona antibonaportlar frontini yaratishga to'sqinlik qilish uchun Lui Napoleon yangi siyosiy qarorni qabul qildi. Qonunchilik majlisi ishning tiklanish uchun 1851-yil 4 noyabrda Lui Napoleon majlisga 1850-yil 31 may qonuni bekor qilish va umumiy saylov huquqini tiklash taklifi birinchi muhokamadayoq yettita ovoz ko'pligi bilan rad etildi. Bu taklifning atrofida kuchli kurash to'plandi. Bonaportchi fitnachilar Majlis tomonidan bu taklifning qabul qilinmasligi uchun har xil harakatlar qilindi.

1851-yilning 2 dekabrda bonaportchi fitnachilar o'z rejasini amalga oshirdi. Davlat apparati, armiya va politsiyaga tayanib ular Qonunchilik majlisiga zarba yetkazdi. Legitimistlar, orleanchilarning rahbarlari va taniqli respublikachilar kechasi o'z uylarida qo'lga olindi va qamoqqa tashlandi. Hibsga olinganlar ichida Tyer, Mole, Shangarne, Kovenyak, Bedo va boshqa ko'plab taniqli deputatlar bor edi. Shu bilan 2-respublika tarixiga yakun yasaldi.

---

<sup>66</sup> А.Н.Карамзин. Писма А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 года. М., 1935. Стр 26.

Majlis yig'ilgan Burbon saroyi qo'shinlari bilan band edi. Prezident dekreti Qonunchilik majlisini va Davlat kengashini tarqatib yuborish haqida e'lon qilgan. Parij va uning atrofida harbiy vaziyat vujudga keldi. Xalqqa qilgan murojatida Lui Napoleon jinoiy ishlarini- konstitutsiyani zo'rovonlik bilan buzishni oqlagan. Uning ta'kidlashicha, Majlis respublikaga qarshi fitna uyushtirish markazi bo'ldi va prezidentning qilmishi o'z maqsadi qilib “respublikani saqlash va mamlakatni qutqarish” ni olgan.<sup>67</sup> Prezident dekreti bilan 31-may qonuni bekor qilindi va umumiy saylov huquqi tiklandi. 14-21 dekabrda umumxalq ovoz berishi boshlandi. Bu loyiha Lui Napoleon tomonidan bayon qilingan. Gap prezident vakolatlarining 10 yillik muddati haqida brogan.

Klerikallarning dahosi Montalamber butun burjuaziya lagerining bonapartcha hurmati sabablarini aniq ifodalagan. “Lui Napoleonga qarshi ovoz berish – satsiolistik inqilobni oqlash demakdir”, degan edi Montalamber. Legitimistlar va orleanchilar faqat rasmiy xarakterga ega bo'lgan qonuniy qarama – qarshilik bilan cheklangan. “Tartib partiyasi” deputatlari va Odilon Barro Parijning 10-okrug meriyasida to'planishdi. Lui Napoleonnini prezidentlik lavozimidan bo'shatish va butun hokimiyatni Majlisga o'tishi haqidagi qaror qabul qilindi. 10 – okrig meriyasida to'plangan deputatlar kechga kelib qamoqqa olindilar. So'l respublikachilar qarshilik ko'rsatishga harakat qilishgan.

Viktor Gyugo boshchiligidagi so'l deputatlar guruhi prezidentga qarshi konstitutsiyani faol himoya qilish, xalqni atrofga jalb qilib, xalqni o'zlariga qarata oldi va “Qarshilik ko'rsatish qo'mitasi ” ni tuzdi. Parij ko'chalarida 3 dekabr dan barrikadalar qurish boshlanib ketdi.

Baden boshchiligidagi Goraning alohida deputatlari ishchilarni ishchilarni kurashga jalb qilishga urinish maqsadida Sent-Antuanda barrikadalar qurdi. Bu barrikadalariga hujum vaqtida qo'shinlar tomonidan Baden o'ldirildi. Kunning ikkinchi yarmida Sen-Marten va Sen-Denining ishchi kvartallarida jiddiy

---

<sup>67</sup> А.И.Герцен. Письма из Франции и Италии. М., 1950. Стр. 48.

respublika qo'zg'aloni boshlangan. Respublika maxfiy jamiyati a'zolari politsiya va harbiylar bilan jangga kirishdi. So'l respublikachilar qarshilik ko'rsatishdi. Ishchilar milliy gvardiyadan mustasno qilindi va qurollardan mahrum qilindilar. Undan tashqari, ishchilar "tartib partiyasi" deputatlariga va qonunchilik majlisiga e'tirozlarini bildira olmadilar, legitimistlar ishchilar nazarida Lui Napoleon kabi va uning shaykasi kabi xalqni ezuvchi dushman edi. Ishchilar respublika uchun jangchilar barrikadalarida qo'zg'alon ko'targan va jang qilganlarning asosini tashkil etgan. Yirik sanoat markazlari ishchilari to'ntarishga qarshi kurashda kuchsiz edi. Bu shaharlarda 1851-yilning oxirlarida ishchilar butunlay qurolsizlantirildi va o'z tashkilotlaridan mahrum qilingan. Bunday qarshilikni Fransiyaning janubiy-sharqiy, janubiy-g'arbiy vamarkaziy qishloq xo'jalik departamentlari ko'rsatgan.<sup>68</sup> Bu hududlarda demokratik elementlar o'z kuchlarini saqlash va ko'proq qo'shinlar va politsiya bilan ta'sir ko'rstish imkoniga ega edi. 1851-yil oxirlariga kelib maxfiy respublika jamiyatlarining soni oshdi va saqlanib qoldi. Aynan shu yerda bonapartchilar to'ntarilishiga jiddiy zarba yetkazildi. Yigirmata departamentda qurolli qo'zg'alonlar avj oldi. Ularning asosiy ishtirokchilari dehqonlar, hunarmandlar, shaharcha qishloqlarning mayda savdogarlari edi.

Rahbarlik qishloq merlariga, o'qituvchilarga, jurnalistlarga va demokratik partiyalarning boshqa vakillariga tegishli edi. Biroq bu qo'zg'alonlar maslaharsiz, hech bir rejasiz olib borilgan edi. Qo'zg'alonlar respublikani himoyalash uchun ijtimoiy talablar va siyosiy shiorlar olib chiqmagan. Fuqarolar mulki yaxshi muhofaza qilingan. Ba'zi hollarda qo'zg'alonchi dehqonlar notariuslar arxivini yoqib yuborishga va vinoga bo'lgan soliqni bekor qilish haqida e'lon qilgan 1851-yil 21-dekabrga tayinlangan saylov butun mamlakat bo'ylab tarqalgan bonaportchilar terrori sharoitida sodir bo'ldi.

---

<sup>68</sup> А.Н.Карамзин. Писма А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 года. М., 1935. Стр 28.

Demokratik ozodlik qoldiqlari yo'q qilindi, bonaport diktaturasiga legal oppazitsiyaning har qanday imkoniyati bekor qilindi. Umumiy saylov huquqini tiklab Lui Napoleon dastlab ochiq ovoz berish tizimini kiritdi. Lekin ommaviy qarshilik va e'tiroz tufayli ochiq ovoz berish maxfiy holatga almashtirildi.

Faqat to'ntarilishga qarshi chiqqanlar prezidentga qarshi har qanday zid ishlarni uyushtirish imkonidan mahrum qilingan. Bu vaziyatlarning natijasida "21 dekabr saylovi" Lui Napoleon ishlarini oqlagan.<sup>69</sup> 7 mln 439 ming 216 ta saylovchi uni yoqlab ovoz beradi. Bu yutuq bonaportchilarga o'z kuchlariga bo'lgan ishonchni yanada oshirgan. Lui Napoleonning yaqin maslahatchisi Peroini bonapartizm dikturasini harakatlari dasturini bayon qilgan. Yuqoridagilarni umumiy lashtirib qaraydigan bo'lsak, Lui Napoleon mamlakatda diktatura tomon shiddat bilan qadam tashlaganligining hamda davlat boshqaruvini to'liq o'z qo'lida to'plaganligidan dalolat edi. Ushbu vaziyatlar respublika uchun har qanday urinish bekor ekanligini ko'rsatib turar edi.

A.I. Gersening ma'lumot berishicha, Lui Napoleon Bonaport 1851-yilning 1-dekabrda davlat to'ntarishidan, roppa-rosa bir yil o'tgach, ya'ni 1852-yilning 2-dekabr kuni o'zini Napoleon III nimi bilan Fransiya imperatori deb e'lon qiladi<sup>70</sup>.

Shu bilan Fransiya 2-respublikasi tarixiga yakun yasaldi. Mamlakatda Napoleon III dikturasini o'rnatildi. U o'zining asosiy maqsadi, ya'ni tog'asi Napoleon I imperiyasini qaytadan tiklash orzusi amalga oshdi.

---

<sup>69</sup> П.В. Анненков. Парижские письма. М., 1983. Стр 189

<sup>70</sup> А.И. Герцен. Письма из Франции и Италии. М., 1950. Стр 54.

## **Xulosa .**

1848-1852 yillar Fransiya tarixida o'zining voqealarga boyligi, yangi demokratik g'oyalarning vujudga kelganligi hamda Yevropadagi inqilobiy harakatlarga ta'siri yuqoriligi bilan yorqin iz qoldirdi. Bu davr Fransiyada 2-Respublika davri deb qaraladi. Birinchi respublikaning tuzilishi bilan mamlakatda eski feodal tuzum tag-tomiri bilan qulatilgan bo'lsa, 2-respublika esa yaratuvchilik vazifasini bajardi. Bu davrda Fransiya davlat sistemasida yangi siyosiy institutlarning vujudga paydo bo'lishi kuzatildi. Mamlakatda kapitalistik ishlab chiqarish sistemasini yaratishda, yangicha fikrlash yo'nalishlarini ochib berdi. Yevropa hukmron doiralarida yashayotgan eskicha siyosiy qarashlarni parchalab tashladi. 2-Respublika keyinchalik XIX asrda va XX asrda ijobiy ravishda demokratik davlat tizimi uchun kurashda na'muna vazifasini bajardi. Fransuz ijtimoiy fikr sohiblari bu borada katta hissa qo'shdi.

2-Respublika davrida ijtimoiy-siyosiy fikr namoyondalari erishgan yutug' bu davrda davlatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlarining tashkil etilishi bo'ldi<sup>71</sup>. Bu organlarning asosiy bo'g'inlari 1848-yilgi Konstitutsiya moddalarida berilgan edi. Konstitutsiya ta'sirida fransuz jamiyatida siyosiy klublardan boshqa ijtimoiy fikr – siyosiy partiyalarning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Partiyalarning davlat, jamiyat va siyosat to'g'risidagi fikrlari rivojlandi.

Bular Ledryu-Rollenning umumiy saylov to'g'risidagi fikrlari, Kormeninning huquqiy davlat to'g'risidagi fikrlari, Shelsherning mustamlakalarda qullikni man etish haqida, Gyugoning umuminsoniy qadriyatlarining sinfiy manfaatlar ustidan ustunligi to'g'risidagi fikrlaridir. Bunday fikrlarning vujudga kelishi va ortidan minglab insonlarni ergashtira olganligini 2-respublikaning yutug'i deyishimiz mumkin. Bundan ko'rinadiki, mamlakatda inqilobgacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy fikr erkinligi ancha past darajada bo'lgan. Inqilob arafasida mamlakatdagi iqtisodiy hayotni qay darajada og'irlashganini quyidagi ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Chunonchi, 1847-yildagi davlat defitsiti butun byudjetining 25 % ga yetdi. Davlatning qarzga botishi moliya aristakratiyasi uchun

---

<sup>71</sup> П.В.Анненков. Парижские письма. М., 1983. Стр 210.

foydali edi. Ya'ni, doimiy davlat defitsiti, agar u, davlatni sindirish xavfini tug'dirmasa, bankirlar birja vakillari uchun- davlatga qarz berib turuvchilar uchun haqiqiy daromat manbai edi<sup>72</sup>. Lekin 1847-yildagi inqiroz sharoitida moliyachilarning shaxsiy mafaatparastligi moliya aristakratiyasining o'ziga zarar yetkazdi, omonat kassalari bo'shab qoldi, pul qo'yuvchilarning o'z pullarini qaytarib oldilar. Gizo davlatning sinishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, ichki zayom chiqarishga majbur bo'ldi.

Krizis va hosilsizlik natijasida mehnatkashlar ommasining, mayda burjuaziya keng tabaqalarining ahvoli 1846-1847 yillarda juda ham o'g'irlashib ketdi. Shu munosabat bilan ommaning aktivligi kuchaydi, bu aktivlik g'alla spekyatlarining uylari va omborxonalariga qilingan hujumlarda, ish tashlashlarda aks etdi. 1847-yilda oziq-ovqat qahatchiligiga qarshi ko'tarilgan g'alayonlar ichida Byuzans shahrida ikkita g'alla spekyarining o'ldirilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1847-yildagi ish tashlash harakatiga Nant shahridagi g'isht teruvchilar va binokor ishchilarning, ko'pdan-ko'p qamoqqa olishlarga va shaharda harbiy qismlar bo'lishiga qaramay, uch oy chamasi ya'ni 1847-yil sentabrgacha davom etgan ish tashlashlari zo'r matonat va uyushqoqlik bilan o'tkazildi.

2-respublika davrida voqealariga yetarli xulosalar berishda, respublika davri voqealarida o'zlari guvoh bo'lgan zamondosh tarixchilar Viktor Gyugo va Aleksis de Tokvillarning ma'lumotlari ham muhimdir. Ushbu tarixchilar mamlakatdagi voqealarni haqqoniy baholay olishlari, hech bir jarayon ularning fikridan chetda qolmaganligi, respublika davridagi yirik voqealarda ayrim tarixiy shaxslarning o'rni juda ham katta bo'lganliklarini ko'rsata olishi bilan ahamiyatlidir. Chunonchi, "1851-yil 2-dekabrda Fransiyada o'zgarish qilishga ko'zi yetmagach, u Fransiyani tark etadi. Viktor Gyugoni "Napoleoncha" asarida quyidagi jumlar bor edi: " Men butun olamga qichqiraman va mening bu hayqirishimga butun

---

<sup>72</sup> А.И.Герцен.Былое и думы.М., 1973. Стр 89.

insoniyat vijdoni qo'shilad", " Lui Napoleon Fransiyani so'yib tashladi,! Lui Napoleon o'z onasini o'ldirdi! ”<sup>73</sup>.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Fransiya 2-respublikasi davrining rus manbalarida aks etish jarayoni, ancha ilmiy va zolisona yoritilgan. Mamlakatda inqilob arafasidagi holatlar, 1848-yil fevral inqilobining boshlanish sabablari, inqilobning borishi, unda ishchilar va hunarmand-dehqonlarning ishtiroki masalasi ham to'la qonli yoritib berilgan. Manbalarni o'rganish jarayonida respublika tuzumining xalq ommasi hayotidagi tutgan o'rniga ham alohida to'z talib o'tgan.Unda respublika tuzumining ijobiy va salbiy tomonlari aniq berilgan. Bu manbalarning o'rganish borasidagi yana bir fikr bu respublikaning qugatilishi, mamlakat bo'ylab yana eski tuzun qoldiqlarining qaytadan o'qnatilishi jatayoni, Lui Napoleon Banoportning asosiy maqsadi bo'lgan imperiyani qaytadan tiklash uchun olib boragan siyosati ochiq-oydin yoritilgan.

Tadqiqot ishimizda Fransiyadagi 2-respublika tarixini yuqoridagi manbalar va tarixshunoslikdagi ma'lumotlar asosida to'liq o'rganib, davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun kerakli bo'lgan ijtimoiy-siyosiy fikrlar, iqtisodiy va davlat boshqaruv tizimidagi islohatlarni tahlil qilib, ularni yangi tadqiqot sifatida taqdim qildik. Bu ishni amalga oshirish mobaynida, Fransiyadagi ijtimoiy tuzumdan kelib chiqqan holda hamda rus manbalaridagi ma'lumotlarni ana shu ijtimoiy tuzum bilan bog'langanlik darajasini o'rganib chiqdik. Ushbu o'rganish jarayonida ma'lum umumiy xulosalarga keldik.

Ya'ni, Fransiya 2-respublikasi tarixi voqealari birgina mamlakat yoki Yevropa qit'asida emas, balki o'sha davrdagi barcha jamoatchilik ongiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa keyingi parlamentar jamiyat qurish, huquqiy davlat hamda turli ijtimoiy fikrlar rivoji uchun manba bo'lib xizmat qildi.

---

<sup>73</sup> А.Н.Карамзин. Писма А.Н.Карамзина 1847-1848. Материалы по истории французской революции 1848 года. М., 1935. Стр 26.

# Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

## Prezident Karimov I.A. asarlari

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., 1998
2. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T., 1998
3. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T., 1999
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T., 2008
5. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., 2011

## Manbashunoslik

7. Анненков.П.В. Парижские письма. М., 1983.
8. Влан.Л. Истории революция 1848 г. Спб, 1907.
9. Герцен.А.И.Былое и думы.М., 1973.
10. Герцен.А.И.Писма из Франции и Италии. М., 1950.
11. Конституция и законодательные акты буржуазных государств ( под. ред. П.Н.Голонзый. М., 1957).
12. Новая история в документов и материалах вип. 1-2 (под.ред. Н.М.Лукина. В.М.Далина.М., 1935).
13. Сборных документов по истории нового времени стран Европы и Америки ( 1640-1870). Состовитель Е.Е.Юровская. М.В.Ш.1990.
14. Хрестоматия по новой истории (под.ред. А.А.Губера и А.В.Есинова). В.2-т. М., 1963-1965.
15. Хрестоматия по новой истории 1640-1870. (под.ред. В.Г.Сироткина). М., 1990.

## **Tarixshunoslik**

16. Бендрикова Л.А. Французская историография революции 1848-1849 году во Франция. М., 1969
17. Далин В.М. Историки Франции XIX-XX веков. М., 1981
18. Дразнина Я.И. Современные буржуазные историки о Наполеоне III и Второй империи. М., 1976
19. Застенкер Н.Е. Революция 1848 года во Франция. М., 1948
20. Историография нового времени стран Европы и Америки. (Под.Ред. И.П.Дементьева). М.В.Ш.1990.
21. Иоаннисян А.Р. Революция 1848 года во Франции и коммунизм. М., 1989
22. Молок А.И. Революция 1848 года и наша современность. Л., 1949
23. Монфред А.З. Истории Франция. М., 1973
24. Михайлов М.И. Революция 1848-1849 году зарубежная историография. Н.Н.И.1998. № 6
25. Рохау А.Л. История Франция от низвержения Наполеона I до восстановления империя 1814- 1852. СПб - М., 1866
26. Фармонов Р.Ф. Развитие французской общественно политической мысли в год Второй республика (1848-1851).М., 1992
27. Революция 1848-1849 гг. 2-том (под.ред Путёмкин Ф.В. и Молок А.И). М., 1952

## **Internet materiallari**

28. <http://www.tunnel.ru>
29. <http://historic.narod.ru>
30. <http://www.e-reading.org.ua>
31. <http://pro-ramt.livejournal.com>
32. <http://sr.wikipedia.org>